

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI
ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV FAKULTETI
“MENEJMENT” KAFEDRASI



5230200 – Menejment bakalavr ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Ishlab chiqarish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishni takomillashtirish

Talaba:

Ergashev Muhammadali
Rayimjon o‘g‘li

Bitiruv malakaviy ishiga
raxbar-maslahatchi:

I.A.Toshpulatov

Farg‘ona – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 I-BOB. ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1.Tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va vazifalari.....	7
1.2.Tovar-moddiy zaxiralarning guruhlanishi va baholanishi.....	14
1.3. Tovar-moddiy zaxiralarning harakatini boshqarish.....	25
 II-BOB. QO'SHMA KORXONA SHAKLIDAGI "UZSALAMAN" AKSIONERLIK JAMIYATI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI TARKIBI VA ULARNING XARAKATI TAHLILI	
2.1. Qo'shma korxona shaklidagi "Uzsalaman" aksionerlik jamiyatining tovar-moddiy zaxiralari tarkibi va ularning xarakati tahlili.....	31
2.2. "Uzsalaman" QK AJ aylanma mablag'lari tarkibidagi tovar-moddiy zaxiralarning harakati tahlili.....	40
2.3."Uzsalaman" QK AJning tovar-moddiy zahiralarini qoplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanganligi tahlili.....	49
 III-BOB. ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	
3.1."Uzsalaman" QK AJning tovar-moddiy zaxiralaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....	58
3.2."Uzsalaman" QK AJning moddiy resurslarini tejash yo'llari va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	63
 XULOSA VA TAKLIFLAR.....	72
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	75

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Har qanday jamiyatda insonlar o'z ehtiyojlarini qondirishlari shart, chunki hayot kechirish ehtiyojlarning qondirilishini anglatadi. Hayotiy ehtiyojlarning esa iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va sof fiziologik kabi turlari mavjud. Ular jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga, hayot kechirishning tabiiy-geografik sharoitiga, tarixiy-milliy an'analar va odatlarga bog'liqdir.

Inson ehtiyojini to'laroq qondirishning negizida mavjud resurslardan oqilona foydalanish vositasida ishlab chiqarishni rivojlantirish yotadi. Mamlakatda moddiy ishlab chiqarish qanchalik yuksalsa shunchalik ko'proq yalpi mahsulot va milliy daromad yaratiladi.

Bizga ma'lumki, iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir. Butun jamiyatda resurslar chegaralangan, chunki tabiiy, moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslar son jihatidan hamda sifat jihatidan chegaraga ega. Mamlakatimizda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ularning ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyatini takomillashtirib borish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy jihatdan rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligining ortishi bevosita milliy iqtisodiyotning taraqqiy ettirishining muhim omili hisoblanadi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 144,2 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil etdi. Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,4 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 5,2 punkt), tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 12,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 1,3 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalashning 4,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,4 punkt) va suv bilan

ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 13,5 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,1 punkt) o'sishi hisoblanadi.

Tayyor mahsulot turlarining kengayishi va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, iste'mol tovarlar ishlab chiqarilishining 2016 yil yanvar– dekabr oylariga nisbatan (102,7 % ga) o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 38,9 % ni tashkil etdi. Poyabzal sanoati ham o'tgan 2016 yilga nisbatan 102.2 % ga oshdi.¹

Poyabzal ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini o'tgan yilga nisbatan o'sishida ayollar oyoq kiyimlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligi asosiy omil hisoblanadi. Poyabzal ishlab chiqarish korxonalarining tashkil etilishi moddiy resurslarga bo'lgan talabning ortishiga ta'sir ko'rsatadi. Talabning ortishi xorijdan import qilinadigan tovar-moddiy zaxiralardan biri kauchuk resursida kuzatiladi. Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalari moddiy resurslardan samarali va tejimli foydalanish talablariga qat'iy rioya etishlari, shu bilan birga tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanish va ularni xarakatini to'g'ri boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalalarni e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni samarali boshqarish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tovar-moddiy zaxiralar hisobini boshqarish masalalarini xorijiy iqtisodchi olimlar V.V.Adamchuk, S.L.Osipov, N.N.Ablakulova, shuningdek, respublikamizning shu soha olimlaridan A.Sotiboldiyev, I.Abdukarimov, R.Rajabov, O.Babajonov, A.Pardayev, A.Karimov, I.Ochilov va boshqalarning ishlaridan keng foydalanilgan.

Olimlarning olib borgan izlanishlari muhim nazariy va amaliy ahamiyatiga ega bo'lsada, lekin tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishda daromadlarni tan olish va xarajatlarni hisobda aks ettirishda yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Jumladan, korxonalarining tovar-moddiy zaxiralarini shakllanishi va uni hisobga olishni soddalashtirish masalasi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi “Uzsalaman” QK AJda tovar-moddiy zaxiralar hisobini nazariy jihatdan keng yoritish, amaliy jihatdan hozirgi holatini o’rganish va ularning harakatini tahlil qilishni amalga oshirishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari quyidagicha:

- “Uzsalaman” QK AJda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish tartibini o’rganish;
- Ishlab chiqarish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslariga e’tibor qaratish;
- “Uzsalaman” QK AJning asosiy faoliyatini tahlil etish va uning iqtisodiy ko’rsatkichlarini o’rganish;
- “Uzsalaman” QK AJda tovar-moddiy zaxiralarini hisobga olishni yaxshilash yo’llari va uni joriy etish mexanizimlarini aniqlash;
- Shuningdek, korxonalarning tovar-moddiy zaxiralaridan samarali foydalanish yo’llarini chuqurroq yoritish.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti va predmeti. Ishning ob’ekti bo’lib, QK shaklidagi “Uzsalaman” aksionerlik jamiyatning (kelgusida korxona deb yuritiladi) tovar-moddiy zaxiralari hisobi va uning hisoboti ma’lumotlari hisoblanadi.

Ishning predmeti bo’lib, korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini uslubiy asoslari, moliyaviy hisobni, jumladan, tovar-moddiy zaxiralar hisobini yaxshilash yo’llarini aniqlash, hamda milliy va xalqaro tajribalar asosida bozor iqtisodiyotiga moslashtirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiy asoslari bo’lib, O’zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral PF-4947 sonli farmoniga muvofiq qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning “Xarakatlar strategiyasi”ning 3-yo’nalishi”, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakat iqtisodiy siyosatiga oid asarlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS),

hamda, mamalakatimiz yetakchi olimlari va mutaxassislarining ushbu muammoga oid ilmiy-tadqiqot natijalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning axborot bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari, Farmonlari va asarlari, darslik, o‘quv qo‘llanma, davriy matbuot nashrlari, “Uzsalaman” QK AJning moliyaviy va boshqaruv hisobi ma’lumotlari hamda internet manbalaridir.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- tovar-moddiy zaxiralar hisobini korxona misolida aniq o‘rganish;
- tovar-moddiy zaxiralarni analitik hisobini tashkil qilish jarayonida korxonaning xususiyatlaridan kelib chiqib tavsiyalar berish;
- tovar-moddiy zaxiralar hisobini yaxshilash maqsadida buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan shaklini qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati “Uzsalaman” QK AJning tovar-moddiy zaxirlarini samarali boshqarish asosida korxonaning iqtisodiy barqarorligini oshirishga erishish masalalarini nazariy jihatdan o‘rganish va aniqlangan kamchiliklarni hal etishga doir amaliy tavsiyalarni berish hamda tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

I-BOB. ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1.Tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va vazifalari

Hozirgi kunda turli mulkchilik shakllangan asosiy korxonalarda asosiy e'tiborni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, korxonalarning rentabellik darajasini oshirish, tannarxni pasaytirish hamda pirovardida yalpi daromad, sof tushum hamda sof foydani ko'paytirishga qaratilgandir.

Hozirgi kunda kelib korxonalarda asosiy xarajatlar qismining oshishi, xarajatlarning oshishi esa korxonalarning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bizning vazifamiz ushbu yoziladigan bitiruv malakaviy ish orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xarajatlar qismida tovar-moddiy zaxiralarining tutgan o'zni, tannarxga ta'siri, ulardan qay darajada foydalanishni tahlil qilib pirovardida o'zimizning xulosa va takliflarni berishdan iborat.

Tovar-moddiy zaxiralarning ishlatilishi, ishlab chiqarish jarayonida yangi mahsulotga o'tkazilib yuborilishi, ularning harakatini hisobda to'g'ri aks ettirishimiz zarur.


Hozirgi kunga kelib tovar-moddiy zaxiralarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda oborot mablag'lari guruhida hisobga olib boriladi. Bularning aksi buxgalteriya balansi aktiv tomonida yuritiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish korxonalarda xarajatlar qismini asosini tashkil qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tovar-moddiy zaxiralar holatini tahlil etganda quyidagi ko'rinishdagi sxemalarda baho berish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarning uch turi mavjud. (1.1.1-rasm.)


Tovar-moddiy zaxiralar iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy-uslubiy va me'yoriy manbalarda turlicha ta'riflangan. Jumladan, 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMSga muvofiq: "tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida

normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va me'yoriy manbalarda turlicha ta'riflangan.



1.1.1-rasm. Tovar-moddiy zaxiralar turlari²

Tovar-moddiy zaxiralar o'z maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi. (1.1.2- rasm.)



1.1.2- rasm. Maqsadiga qarab tovar-moddiy zaxiralarning toifalari ³

Jumladan, 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMSGa muvofiq: "tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan,

² Haydarov Sh. Tuxsanov H. Tovar moddiy zaxiralarning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari// Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2006. - №4. – 6 b.

³ Haydarov Sh. Tuxsanov H. Tovar moddiy zaxiralarning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari// Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2006. - №4. – 6 b.

shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar"⁴

Tovar-moddiy zaxiralar 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMSga muvofiq tashkilotlarda quyidagilar ko'rinishida bo'lishi mumkin:

a) mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan xom ashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, idish va idishbop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, boshqa materiallar zaxiralari;

b) boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan (boquvga qo'yilmasdan) katta yoshdagi qoramollar, sotish uchun chetdan qabul qilingan qoramollar;

v) detallar, uzellar, buyumlarning tugallanmagan ishlov berilishi va yiqilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish. Ishlarni bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarish ular bo'yicha qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad tan olinmagan tugallanmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga doir xarajatlardan tashkil topadi;

g) tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi - sotish uchun mo'ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

d) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatdagi faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar ob'ektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar)

⁴ O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya Hisobi Milliy standartlari O'zBAMA nashriyot-axborot markazi, - Toshkent, 2007. - 198 b

keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

“Inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan aktivlar kiritiladi:”⁵

a) xizmat muddati bir yildan oshmaydigan;

b) qiymati bir birlik (komplekt) uchun xizmat muddatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasida belgilangan (xarid qilish paytida) eng kam ish haqining ellik baravarigacha miqdorda bo'lgan buyumlar. Tashkilot rahbari hisob siyosatida ularni inventar va xo'jalik anjomlari tarkibida hisobga olish uchun buyumlar qiymatining bundan past chegarasini belgilash huquqiga egadir.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

a) maxsus asboblari va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumli va ommaviy ishlab chiqarish yoki yakka tartibdagi buyurtmani tayyorlash uchun mo'ljallangan maqsadli vazifadagi asboblari va moslamalar);

b) maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal;

v) ko'rpa-to'shaklar;

g) yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblari va hokazo);

d) oshxona inventari, shuningdek sochiq-dasturxonlar;

e) ularni barpo etish xarajatlari qurilish-montaj ishlarining tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (titulda bo'lmagan) inshootlar, moslamalar va qurilmalar;

j) foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;


z) ovlash qurollari (trallar, yoyma to'rlar, to'rlar, anjomlar, matraplar va hokazo).

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini to'g'ri va to'laqonli tashkil etish maqsadida ularni ilmiy asoslangan tasnifi va baholanishi muhim ahamiyatga ega.

⁵ BHMS № 4 «Tovar-moddiy zaxiralar». O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2006-yil 17-iyulda ro'yxatga olingan, № 1595.

Egalik qilish xususiyatiga muvofiq, moddiy-ishlab chiqarish zaxiralari tashkilotga egalik huquqi hamda xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi bo'yicha tegishli (xususiy) va unga ushbu huquqlar bo'yicha tegishli bo'lmagan (xususiy bo'lmagan) boyliklarga bo'linadi.

Tovar-moddiy zaxiralar egalik qilish xususiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi. (1.1.3-rasm).




1.1.3-rasm. Egalik qilish xususiyati bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarni tasniflash⁶

⁶ Haydarov Sh. Tuxsanov H. Tovar moddiy zaxiralarning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari// Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2006. - №4. – 10 b.

Tashkilotlarga tegishli bo'lgan tovar-moddiy boyliklarga u tomondan tayyorlangan, sotib olingan yoki boshqa shaklda olingan boyliklar kiritilib, ular omborda yoki ishlab chiqarish jarayonida joylashgan bo'ladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni ishlatilish tartibiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin. (1.1.4-rasm)



1.1.4-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarni ishlatilish tartibiga qarab tasniflash⁷

Tovar-moddiy zaxiralari bo'yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Tovar-moddiy zaxiralarini ularning mohiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda hisobga olish;
- Tovar-moddiy zaxiralarini to'g'ri turkumlash va guruhlariga ajratish;
- Tovar-moddiy zaxiralarini to'g'ri baholash;

⁷ Haydarov Sh. Tuxsanov H. Tovar moddiy zaxiralarning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2006. - №4. – 11 b.

- Tovar-moddiy zaxiralariga qilingan qo'shimcha xarajatlarni (tashib keltirish, boj va soliq to'lovlari, kurs o'rtasidagi farqlar, ustamalar, sertifikatsiyalash va boshqalar) to'g'ri hisobga olish, ularni o'z vaqtida sotib olingan zaxiralar tannarxiga (qiymatiga) yoki korxona xarajatlariga kiritish;
- Tovar-moddiy zaxiralari holati va harakatini to'g'ri, o'z vaqtida va tegishli boshlang'ich hujjatlar bilan rasmiylashtirib hisobga olish;
- Tovar-moddiy zaxiralariga moddiy javobgarlikni ta'minlash, moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobotlarning to'g'ri va o'z vaqtida tuzilishi, taqdim etilishini nazorat qilish;
- Tovar-moddiy zaxiolarining holati va harakati bo'yicha moddiy javobgar shaxslarning hisobot ma'lumotlari va hisob ma'lumotlarining to'liq uyg'unligini ta'minlash;
- Tovar-moddiy zaxiolarining butligini ta'minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda qayta ro'yxatdan o'tkazish (inventarizatsiya qilish), uning natijalarini to'g'ri aniqlash va hisobga olish;
- Mavjud tovar-moddiy zaxiolaridan unumli foydalanish, buning uchun omborlarda me'yoridan ortiq zaxiolarini saqlamaslik, ularni qo'shimcha nobudgarchiliklariga yo'l qo'ymaslik, keraksiz materiallarni sotish va uning natijalarini to'g'ri hisobga olish;
- Tovar-moddiy zaxiolarini asosli ravishda qayta baholash va uning natijalarini hisobda to'g'ri aks ettirish;
- Arzon baholi buyumlarning eskirishini to'g'ri hisoblash, to'liq eskirgan buyumlarni o'z vaqtida hisobdan chiqarish, ularni balans qiymatini hisobotda
- To'g'ri aks ettirish;
- Moddiy-texnika ta'minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib borish;
- Materiallarning ishlab chiqarishga to'g'ri berilishi va ularni sarflash me'yoriga rioya qilish ustidan nazorat olib borish;
- Mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan TMZlarni kalkulyasiya ob'ektlarida to'g'ri taqsimlash.

Tashkilotga egalik huquqi va boshqa shunga o'xshash huquq bo'yicha tegishli bo'lmagan, biroq shartnoma shartlari bo'yicha uning ixtiyoridagi tovar-moddiy boyliklar kiritilib, ular alohida turlari bo'yicha balansdan tashqari schyotda hisobga olinadi.

Yuqorida keltirgan ta'rif va tavsiflarni o'rganish natijasida tovar-moddiy zaxiralarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining faoliyatiga xos quyidagi ta'rifni taklif etamiz.

Tovar-moddiy zaxiralar - bu kapital doiraviy aylanishining birinchi bosqichidagi moddiy aktivlar, ya'ni hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o'zlarining natural-moddiy shaklini to'liq, saqlab turgan ishlab chiqarish zaxiralari; asosiy podaga o'tkazish yoki sotish maqsadida o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari; ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlar; sotish uchun mo'ljallangan tovarlar; tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar hamda ishlab chiqarishdagi brakdan iborat.

1.2.Tovar moddiy zaxiralarning guruhlanishi va baholanishi

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xo'jalik mulkiga egalik qilish, ishlab chiqariladigan mahsulotlariga qarab tovar-moddiy zaxiralarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:


- xom-ashyo va asosiy materiallar;
- yordamchi materiallar;
- yoqilg'i ehtiyot qismlar;
- idish va idish materiallari;
- sotib olingan tayyor mahsulotlar;
- qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari;
- boshqa materiallar.

Tovar-moddiy zaxiralarini holatini o'rganishda hisobni yuritilishiga alohida e'tibor berish kerak. Qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi

hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" Nizom hamda buxgalteriya hisobida qabul qilingan xalqaro va milliy standartlarda tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan savollar o'z yechimini topgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarning quyidagi guruhlari mavjud. (1.2.1-rasm.)

Tovar-moddiy zaxiralarning hisobini yuritish jarayonida ular quyidagi tartibda, ya'ni tovar-moddiy zaxiralar quyidagilarning eng kam qiymati bo'yicha baholanadi:



1.2.1-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarning asosiy guruhlari

a) tannarx bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki moddiy zaxiralarning xarid bahosiga transport-tayyorlov sarflari qo'shilgan holda;

b) sof realizasiya qiymati bo'yicha kelishilgan bahodan ularni sotishga tayyorlash va sotish bilan bog'liq sarflarni chegirgandan keyin qolgan qiymatda.

Tovar-moddiy zaxiralarni tannarx bo'yicha baholash tartibida tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi quyidagilardan tashkil topadi:

a) tovar-moddiy zaxiralarining sotib olish xarajatlari, jumladan, xarid qiymati (schyot-fakturada ko'rsatilgan summadan xarid chegirmalarining ayirmasi), bojxona to'lovlari va boshqa soliqlar (qoplashga mo'ljallanganlarning ayirmasi bilan), fraxt qiymati (yuklash, tushirish ishlari va tovarning yo'ldagi sug'urtasini hisobga olgan holda), xarid bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlardan;

b) qayta ishlash xarajatlari va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlardan, jumladan:

1. Xom-ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga aylantirishda stanok va asbob-uskunalarda bevosita band bo'lgan ishchilarning mehnat haqini to'lash va ijtimoiy sug'urtalash xarajatlari;

2. Xom ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish uchun sarflangan doimiy va o'zgaruvchan ishlab chiqarishning ustama xarajatlarni doimiy tartibda taqsimlashdan iborat.

v) joriy davrda TMZni tayinlangan joyga eltib berish uchun transportirovka yoki ularni kerakli holatga keltirish jarayonida (tayyor mahsulotni omborga olib borish, tovarni shaxsiy buyurtmalar asosida bichish va yig'ish xarajatlari va boshqalar) sarflangan boshqa xarajatlar.

Odatda buxgalteriya hisobi va soliq solish amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish qiymati (yetkazib beruvchi to'lanadigan summalar) va ularni sotib olish bilan bog'liq barcha xarajatlar tovar-moddiy zaxiralarning sotib olish qiymati deb ataladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga (ya'ni sotib olish qiymatiga) quyidagilar kiradi:

– boj to'lovlari va yig'imlari;

- bir birlik tovar-moddiy zaxira sotib olishdagi soliqlar va yig'inar summasi
- (agar ular korxonaga qoplanmasa);
- tovar-moddiy zaxiralarni sotib olishda qatnashgan ta'minotchi va vositachi korxonalarga to'lanadigan komission mukofotlar;
- tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash qilish va ularni sotib olish bilan bog'liq texnik sharoitlarga muvofiq sinovdan o'tkazish bo'yicha xarajatlar;
- tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ulardan kundalik foydalanish manziliga yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar. Ularga transport-tayyorlov xarajatlari, yuklash-tushirish ishlari uchun tariflarni to'lash (fraxt) hamda tovar-moddiy zaxiralarni kundalik foydalanish joyiga transportirovka qilish, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni transportirovka qilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar kiradi;
- tovar-moddiy zaxiralarni sotib olishga bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish xarajatlari ularni paydo bo'lishini tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlarga asosan aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni baholash va tannarxini aniqlash bo'yicha har bir korxona o'z "Hisob siyosati" da aniq yo'nalishni ya'ni qo'yidagi usullardan birini tanlab aks ettirishi zarur:

1. Yalpi identifikatsiyalash usuli;
2. LIFO usuli (Last-in, first-out LIFO);
3. O'rtacha qiymat usuli (Average-cost AVECO);
4. FIFO usuli (First-in, first-out FIFO).

Yalpi identifikatsiyalash usuli materiallar zaxiralarini baholashning bu usulida materiallar zaxirasi tarkibidagi birliklar hisobot davrining oxirida u yoki bu operatsiya natijasida olingan zaxira sifatida aniq belgilangan bo'ladi. Katta qiymatli materiallarni sarflash chog'ida yalpi identifikatsiyalash usulidan foydalanish mumkin. Bu usuldan ayrim hollardagina foydalanish qulaydir, lekin ikkita muhim kamchiligi tufayli keng tarqalmagan. Birinchidan, ko'p hollarda

tovar-moddiy zaxiralar birliklarining sotib olinishi va sarflanishi kuzatib turish qiyin. Ikkinchidan, agar korxona bir turdagi materialni xarid qilish va iste'mol qilish bilan shug'ullansa, qanday materiallar sarflangan va qaysilari sarflanmaganligini ancha shartli ravishda aniqlash mumkin bo'ladi.

FIFO (FIFO) usuli - tovar-moddiy zaxiralarni biriichi turkum (dastlabki xarid qilingap turkum) bo'yicha hisobga olish usuli, bu usulga muvofiq zaxiralarni qanday tartibda sotib olingan bo'lsa shunday tartibda foydalaniladi, ya'ni ishlab chiqarishga (sotishga) dastlab tushgan zaxiralar xarid vaqtidagi birinchi qiymatbo'yicha baholanishi nazarda tutiladi, demak, davr oxiridagi zaxiralar so'nggi xarid qiymati bo'yicha baholanadi.

FIFO (FIFO) usulidan xar qanday tarmoq korxonasida materiallarning xaqiqiy xarakatidan qat'iy nazar foydalanish mumkin, chunki bu usul tovarlarning xarakatini emas, balki qiymatining xarakatini hisobga oladi. Pul qadrsizlanadigan davrda FIFO usuli mumkin bo'lgan sof foyda olishning eng yuqori darajasini 1.2.1-jadval misolida ko'ramiz.

1.2.1-jadval

FIFO usulda tovar-moddiy zaxiralarni baholash

Materiallarning xarid qilingan vaqti	Birlik miqdori	Birlikka xarajat, so'mda	Umumiy xarajatlar, so'mda
2 mart	2000	4,00	8000
15 mart	6000	4,40	26400
30 mart	2000	4,75	9500
Mavjud zaxiralar jami	10 000		43900
Yil oxiriga zaxiralar, b. - 6000 b			
Yil oxiriga zaxiralar summasi - 6000 shundan $4000 \cdot 4,4 + 2000 \cdot 4,75 = 27100$ so'm			
Xaqiqatda materiallar tannarxi		43 900 so'm	
minus.oxiridagi zaxira		27 100 so'm	
Ishlab chiqarishdagi materiallarning tannarxi		18 600 so'm	

LIFO (LIFO) usuli- tovar moddiy zaxiralarni so'nggi turkumi (so'nggi xarid kilingan turkumi) bo'yicha hisobga olish usuli: bu usulda zaxiralardan eng so'ngi xarid kilinganidan boshlab foydalaniladi, demak ishlab chiqarishga (sotishga)

zaxiralarning tushishish so'nggi xaridning tannarxi bo'yicha baholanadi, davr oxiridagi zaxiralarning tannarxi esa birinchi xarid tannarxidan kelib chiqib baholanadi. LIFO (LIFO) usulidan foydalanish pul qadrsizlanishi davrida eng kam foyda beradi, deflyatsiya (narx pasayishi) davrida eng ko'p foyda beradi. 1.2.2-jadvalda FIFO usulidan farqli ravishda joriy xarajatlar va daromadlarni bir-biriga moslashtirishni (bog'lashni) ta'minlaydi, pul qadrsizlanishining ta'sirini kamaytirish imkonini beradi.

1.2.2-jadval

LIFO usulda tovar-moddiy zaxiralarni baxolash

Materiallarning xarid qilingan vaqti	Birlik miqdori	Birlikka xarajat, so'mda	Umumiy xarajatlar, so'mda
2 mart	2000	4,00	8000
15 mart	6000	4,40	26400
30 mart	2000	4,75	9500
Jami zaxiralar	10 000		43900
Yil oxiriga zaxiralar, b. - 6000 birlik			
Yil oxiriga zaxiralar summasi - 6000 shundan $2000 \cdot 4 + 4000 \cdot 4,4 = 25600$ so'm			
Xaqiqatda materiallar tannarxi		43 900	so'm
minus:oxiridagi zaxira		25 600	so'm
Ishlab chiqarishdagi materiallarning tannarxi		18 300	so'm

O'rtacha qiymat usuli (AVECO)- materiallarni o'rtacha narxda baholashga asoslanadi: tovar moddiy zaxiralarning qiymatini hisoblash usuli, bu usulda sotilgan tovarlar (foydalanilgan materiallarning) va oxirgi zaxiralarning tannarxi sotish uchun (foydalanish uchun) yaroqli tovarlar (materiallar)ning o'rtacha qiymatiga teng deb taxmin kiladi.

O'rtacha qiymat sarflash uchun mo'ljallangan materiallarning hamma (to'la) qiymatini shu materialning birliklari miqdoriga taqsimlash yo'li bilan hisoblanadi. 1.2.3-jadval malumotlaridan foydalanib moddiy zaxiralarning o'rtacha qiymatini topamiz, shung muvofiq ravishda ishlab chiqarishga berilgan materiallar baholanadi va hisobot davri oxiridagi qolgan zaxiralar baholanadi.

AVECO usulda tovar-moddiy zaxiralarni baxolash

Materiallarning xarid qilingan vaqti	Birlik miqdori	Birlikka xarajat, so'mda	Umumiy xarajatlar, so'mda
2 mart	2000	4,00	8000
15 mart	6000	4,40	26400
30 mart	2000	4,75	9500
Zaxiralarning jami	10 000		43900
Birlikning o'rtacha qiymati = $43900/10000=4,39$			
Oy oxiriga zaxiralar, b. - 6000 birlik			
Oy oxiriga zaxiralar, so'mda - $6000 \times 4,39 = 26\,340$ so'm			
Xaqiqatda materiallar tannarxi		43 900	so'm
minus: oy oxiridagi zaxira		26 340	so'm
Ishlab chiqarishdagi materiallarning tannarxi		17 560	so'm

Quyida tovar-moddiy zahiralarning haqiqiy tannarxi va bozor qiymatlari (sof sotish qiymati) ning shakllanishi va baholanishi tartibini batafsil ko'rib chiqamiz.

BHMS №4 ning 13-bandiga ko'ra, tovar-moddiy zahiralar tashkilotning buxgalteriya balansiga dastlab ularni sotib olish qiymati (etkazib beruvchiga to'langan summalar) hamda ularni sotib olish bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z ichiga olgan tannarxi bo'yicha kiritiladi, qo'shimcha qiymat solig'i va boshqa qoplanadigan soliqlar (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollardan tashqari) bundan mustasno.

Odatda buxgalteriya hisobi va soliq solish amaliyotida tovar-moddiy zahiralarni sotib olish qiymati (yetkazib beruvchi to'lanadigan summalar) va ularni sotib olish bilan bog'liq barcha xarajatlar tovar-moddiy zahiralarning sotib olish qiymati deb ataladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga (ya'ni sotib olish qiymatiga) quyidagilar kiradi:

- boj to'lovlari va yig'implari;
- bir birlik tovar-moddiy zahira sotib olishdagi soliqlar va yig'implar summasi (agar ular korxonaga qoplanmasa);

- tovar-moddiy zahiralarni sotib olishda qatnashgan ta'minotchi va vositachi korxonalarga to'lanadigan komission mukofotlar;
- tovar-moddiy zahiralarni sertifikatlash qilish va ularni sotib olish bilan bog'lik texnik sharoitlarga muvofiq sinovdan o'tkazish bo'yicha xarajatlar;
- tovar-moddiy zahiralarni tayyorlash va ulardan kundalik foydalanish manziliga yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar. Ularga transport-tayyorlov xarajatlari, yuklash-tushirish ishlari uchun tariflarni to'lash (fraxt) hamda tovar-moddiy zahiralarni kundalik foydalanish joyiga transportirovka qilish, shuningdek, tovar-moddiy zahiralarni transportirovka qilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar kiradi;
- tovar-moddiy zahiralarni sotib olishga bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Tovar-moddiy zahiralarni sotib olish xarajatlari ularni paydo bo'lishini tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlarga asosan aniqlanadi. Bunda, savdo diskontlari, siylovlari va shunga o'xshash boshqa chegirmalar tovar-moddiy zahiralarni sotib olish xarajatlari belgilashda amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobi amaliyotida sotib olingan tovar-moddiy zahiralarni tannarxiga ularni sotib olish bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish xarajatlari ham kiritilishi ko'p uchraydi. Bu noto'g'ridir. Chunonchi, BHMS № 4 ning 13-bandiga ko'ra, sotib olingan tovar-moddiy zahiralarni to'lash bilan bog'liq xarajatlar (masalan, akkreditiv ochish bo'yicha xarajatlar, bankning o'tkazmalar uchun komissiyasi, tovar-moddiy zahiralarni xorijiy valyutaga sotib olishda valyuta konvertatsiyasi uchun bank komissiyasi va boshqa bank xizmatlari uchun xarajatlar), sotib olish bo'yicha bitimlarni tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish va yopish bilan bog'liq xarajatlar va sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar tovar-moddiy zahiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy xarajatlar qo'shilmaydi.

To'lovlar muddatidan ilgari amalga oshirilishi yoki tovarni katta hajmda harid qilinishi yoki tomonlar kelishuvida ko'zda tutilgan boshqa shu kabi sabablarga

ko'ra beriladigan pul chegirmalari sotib olingan tovar-moddiy zahiralarining qiymatini kamaytirmaydi, balki ular yuzaga kelgan hisobot davrida moliyaviy-xo'jalik faoliyat natijalariga olib boriladi.

BHMS № 4 ning 15-bandiga muvofiq tashkilotning transport-tayyorlov xarajatlari quyidagi usullardan biri bo'yicha hisobga olinadi yoki sotib olingan tovar-moddiy zahiralar qiymatiga o'tkaziladi:

- transport-tayyorlov xarajatlarini tovar-moddiy zahiralar tannarxiga bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) kiritish (shartnoma narxiga qo'shish, ustav kapitaliga kiritilgan badalning pul bahosiga qo'shish, tekinga olingan va xokazo TMZning joriy qiymatiga qo'shish). Transport-tayyorlov xarajatlarini tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) kiritish usulini ko'p bo'lmagan nomenklaturadagi tovar-moddiy zaxiralarga ega bo'lgan tashkilotlarda, shuningdek tovar-moddiy zahiralarining alohida turlari va guruxlarining qiymati katta ahamiyatga ega bo'lgan hollarda qo'llash maqsadga muvofiq;

- yetkazib beruvchining hisob-kitob hujjatlariga binoan transport tayyorlov xarajatlarini alohida sintetik 1510 “Materiallarni tayyorlashva harid qilish” schyotiga olib borib, keyinchalik ularni “Materiallar” elementi bo'yicha tovar-moddiy zahiralar tannarxiga yoki ishlatilishiga qarab ishlab chiqarish xarajatlariga va davr xarajatlariga kiritish.

Shunga e'tibor berish kerakki, birinchi usul — transport-tayyorlov xarajatlarini tovar-moddiy zahiralar tannarxiga bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) kiritish usulidan tovar-moddiy zahiralar nomenklaturasi katta bo'lmagan tashkilotlarda, shuningdek, tovar-moddiy zahiralarining alohida turlari va guruhlari qiymati ancha salmoqli bo'lgan hollarda foydalanish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi usuldan foydalanganda, transport-tayyorlov xarajatlarining summasi alohida umumlashtiriladi va tegishli tovar-moddiy zahiralar turlari o'rtasida taqsimlanadi (transport-tayyorlov xarajatlari kiritiladigan partiyalar, guruhlar bo'yicha).

Tashkilotning hisob siyosatida belgilangan davrga bog'liq, holda alohida umumlashtiriladigan transport-tayyorlov xarajatlari summasi, tovar-moddiy zahiralarning davr oxiridagi qoldig'i summasi va ushbu davr ichida chikib ketgan (foydalanilgan, sotib yuborilgan, tekinga berilgan) tovar-moddiy zahiralari summasi o'rtasida taqsimlanadi. Transport tayyorlov xarajatlarining chiqib ketayotgan tovar-moddiy zahiralarga o'tkaziladigan summasi transport-tayyorlov xarajatlarining o'rtacha foizi va chiqib ketgan tovar-moddiy zahiralari qiymati ko'paytmasi orqali aniqlanadi va ushbu tovar-moddiy zahiralarning chiqib ketishi ko'rsatilgan hujjatlardagi schyotlarda aks ettiriladi. Transport-tayyorlov xarajatlarining o'rtacha foizi quyidagicha aniqlanadi: davr boshidagi transport-tayyorlov xarajatlari qoldig'i summasi va ushbu davrda amalga oshirilgan transport-tayyorlov xarajatlari summasi yig'indisi bo'linadi, davr boshidagi tovar-moddiy zahiralari qoldig'i summasi va davr davomida kelib tushgan tovar-moddiy zahiralari summasining yig'indisiga.

Ta'kidlab o'tish lozimki, transport-tayyorlov xarajatlari hisobga olishni alohida foydalaniladigan usuli tashkilotning hisob siyosatida qonunchilikda o'rnatilgan tartibda aks ettirilishi lozim.

Buxgalteriya hisobi amaliyotida sotib olinadigan tovar-moddiy zahiralarning haqiqiy tannarxini shakllantirish ko'p jixatdan ularning xo'jalik yurituvchi sub'ektga kelib tushish manbasiga bog'lik. Quyida tovar-moddiy zahiralari haqiqiy tannarxining shakllanishi uni tan olishning asosi ularning kelib tushishi manbasiga bog'liq ravishda ko'rsatilgan.

“Xususiy korxona to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq mulkdor xususiy korxona ustavi fondiga o'zi kiritayotgan mulkni mustaqil baholaydi. “Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq jamiyat ustavi fondiga (ustavi kapitaliga) jamiyat ishtirokchilari va jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar tomonidan kiritiladigan pulsiz badallarining puldagi bahosi jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qarori

bilan tasdiqlanadi. SHu bilan birga, “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 33-moddasida belgilanganidek, jamiyatni ta’sis etishda aktsiyalarga to’lash uchun kiritiladigan mulkning puldagi bahosi ta’sischi o’rtasidagi shartnoma bo’yicha aniqlanadi. Agar shunday yo’l bilan sotib olinadigan jamiyatning aktsiyalari yoki boshqa qimmatli kog’ozlarining nominal qiymati qonunchilikda belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravaridan oshsa, u holda jamiyatning aktsiyalari yoki boshqa qimmatli qog’ozlarini to’lash uchun kiritiladigan mulkning puldagi bahosi mustaqil baholovchi tomonidan aniqlanishi zarur.

Eslatib o’tish lozimki, tashkilot BHMS №4 ning 13-bandida ko’zda tutilgan xarajatlarni amalga oshirganda, tovar-moddiy zahiralarning ustav kapitaliga ulush sifatida, bepul, almashtirib yoki boshqa holatlarda qabul qilinganda tovar-moddiy zahiralarning qiymati ushbu xarajatlarning summasiga ko’payadi.

Tovar-moddiy zahiralarning xo’jalik sub’ekti o’zida tayyorlanganda ularning haqiqiy tannarxi deb ularning ishlab chiqarish tannarxi qabul qilinadi, tovar-moddiy zahiralarning ishlab chiqarish tannarxi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevralda 54-son qarori bilan tasdiqlangan Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risidagi nizomga muvofiq aniqlanadi.

Qonunchilikda belgilangan tartibda aynan o’xshash bo’lgan tovar-moddiy zahiraga almashtirilgan tovar-moddiy zahiraning haqiqiy tannarxi ayirboshlashda berilgan tovar-moddiy zahiraning balans qiymatiga teng. Tovar-moddiy zahiralarning qo’shimcha haq to’lab almashtirilsa, aynan o’xshash tovar-moddiy zahiraga almashtirilgan tovar-moddiy zahiraning haqiqiy tannarxi ayirboshlashda berilgan tovar-moddiy zahiralarning almashtirish paytida berilgan (olingan) pul mablag’lari yoki ularning ekvivalenti summasiga kamaytirilgan (ko’paytirilgan) balans qiymatiga teng.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibidan tovar-moddiy zahiralarning tarkibiga o’tkaziladigan tovar-moddiy zahiralarning haqiqiy tannarxi ushbu uzoq muddatli aktivlarning balans (qoldiq) qiymatiga teng deb belgilanadi.

Tovar-moddiy zahiralarning ular buxgalteriya hisobiga qabul qilingan hakikiy tannarxi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va tegishli standartda belgilangan holatlardan tashqari, o'zgartirilmaydi.

1.3. Tovar-moddiy zahiralarning harakatini boshqarish

Tovar-moddiy zahiralari(TMZ)ning hisobini yuritishga asos bo'lgan, TMZ hisobga olish bo'yicha tegishli Standartning talabiga javob beradigan va hisobni avtomatlashtirishga moslangan dastlabki hisob hujjatlari qo'llaniladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektga TMZ kirim qilinishini avvalo marketing bo'limi nazorat qiladi, chunki bu bo'lim mol yetkazib beruvchilarning TMZni o'z vaqtida yetkazib berishi yuzasidan tuzgan shartnomadagi grafikning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi, ularga miqdor va sifatining buzilishi natijasida da'vo bildiradi. Belgilangan vaqtda sub'ektga kelib tushmagan TMZlarni qidirib topadi.

Maxalliy va chetdan olinadigan TMZ sub'ekt tomonidan vakil, yuk tashuvchi (ekspeditor) olib sub'ektning omborxonasiga topshiradi. Yuk tashiyotgan transport tashkilotlaridan tegishli yuklarni qabul qilib olayotgan ekspeditor (yukni kuzatuvchi) asosiy e'tiborini idishlarning holati, surguchi-plombasining holatiga qaratishi lozim. Agarda ularga shikast yetgan bo'lsa ushbu yukni tekshirib qabul qilishi lozim. Tekshirish natijasida yukning kamomadi yoki buzilishi (sinishi, ezilishi) aniqlangan holatda darhol kommertsiya (oldi-sotdi) dalolatnomasi tuzilib tegishli javobgar shaxslarga, mol yetkazib beruvchilar yoki transport tashkilotlariga da'vo bildiriladi.

Ushbu yukni kuzatuvchi olib kelgan yuklarini omborxonaga topshirayotganda omborxona mudiri uning hujjatlarda ko'rsatilgan miqdori, sifati, turlarini haqiqiy mavjudligiga taqqoslab tekshiradi va qabul qiladi. Hujjatda ko'rsatilgan TMZ haqiqatda mavjud bo'lgan qiymatliklarga to'g'ri kelsa ombor mudiri materiallarning kirim orderi (M-4) ni to'lg'azadi.

Dastlabki hujjatlarning miqdorini kamaytirish maqsadida ayrim xoll arda ushbu TMZ hujjatsiz qabul qilinadi, ya'ni kirim orderi tuzilmaydi. Agarda mol yetkazib beruvchining hujjatida ko'rsatilgan TMZ haqiqatda qabul qilinganga

to'g'ri kelsa, u xolda uning hujjati — to'lov talabnomasi to'lg'aziladi va shtamp bilan tasdiqlanadi. Chunki shtampda kirim orderining hamma rekvizitlari bo'ladi.

Agarda TMZ markazlashgan xolda yetkazib berilayotgan yoki mol yetkazib beruvchi olib kelsa u xolda tovar-transport yuk xati to'lg'aziladi.

TMZ kelgan va omborga qabul qilingan kuniyoq kirim hujjatlari to'lg'aziladi.

Laboratoriya tekshirishidan o'tkaziladigan, texnikaviy tekshiriladigan va mas'ul saqlashga qabul qilingan TMZ ayrim xolda yoki ayrim omborxonada saqlanadi. Tekshirish o'tkazib bo'linmaguncha ularni kirim qilish va sarflash qat'iyan man qilinadi.

Ushbu TMZ maxsus daftarlarda hisobga olib boriladi va ularning butligi, saqlanishi ustidan nazorat o'rnatishga yordam beradi.

Bundan tashqari TMZ ichki harakatini nazorat qilish va hisobga olish uchun ombordan-omborga, tsexlardan foydalanishdan ortiqcha yoki tejalgan materiallarni va chiqindilarni omborga topshirishni nazorat qilish lozim.

Yaroqsiz mahsulotlarni, asosiy vositalarni buzishdan olingan qiymatliklarni, ATB tugatilishdan olingan qiymatliklarni omborga topshirish jarayonlarida yuk xatlari va talabnomalar (M-11) tuziladi. TMZ topshirayotgan javobgar shaxs ushbu hujjatni ikki nusxada tuzadi:

1-nusxa—sexning javobgarligidagi materiallarni hisobdan chiqarishga;

2-nusxa — omborxonaga ularni qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Sub'ektga qabul qilingandan keyin tovar-moddiy zahiralaridan asosan quyidagi tartibda foydalaniladi:

- xom-ashyolar, materiallar asosan ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish uchun, ayrim xollardagina xodimlarga yordam tariqasida ajratiladi va ortiqcha bo'lgan materiallar sotiladi.

- tovarlar asosan sotish uchun, ta'sischi'larning ulushi, barter muomalasi va mehnat haqi, mukofot va yordam sifatida berish.

TMZ sub'ektning ishlab chiqarishi va xo'jalik zaruriyati (imorat va inshootlarni asrash, ta'mirlash, ko'rikdan o'tkazish) uchun sarflanganda ularning chiqimini tasdiqlaydigan hujjatlar tuziladi. Ushbu hujjatlar chegaralangan

olinadigan karta, talabnoma, yuk xati va bildirishnomalardir. Ushbu hujjatlardan eng qulay va sarfning ustidan nazorat qilishni osonlashtiradigan hujjat chegaralangan olinadigan kartadir. Ushbu karta marketing bo'limi tomonidan — texnolog bilan kelishilgan xolda ikki nusxada (M-8 va M-9) tuziladi. Bu karta ishlab chiqarishning xususiyatiga qarab bir xil yoki bir necha turdagi materiallarga va ayrim texnologik jarayonga tuziladi. Ushbu ikkita kartada tegishli sarflangan materiallar qayd qilinadi va qoldiq summasi ko'rsatilib boriladi. Belgilangan material yoki xom-ashyolar sarflanib bo'lgandan keyin yoki oy tugagandan keyin ushbu kartalar omborxonaning mudiri va tsex boshlig'i tomonidan o'zining hisobotlariga qo'shib buxgalteriyaga topshiradilar. Ushbu kartalarga asosan buxgalteriyada xom-ashyo va materiallarning chiqimi aks ettiriladi va ularning sarflangan hajmi va yo'nalishlari nazorat qilib boriladi. Ushbu kartada foydalanilmagan (qaytarilgan) xomashyo va materiallar ham ko'rsatiladi.

Chegaralangan-oluv kartalari ushbu xomashyo yoki materiallarni doimiy yoki tizimli olish zaruriyati tug'ilganda ishlatiladi. Ayrim xollarda materiallarga bo'lgan zaruriyat ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatida doimiy tusda ruyobga chiqmaydi. U xollarda zaruriyat uchun talabnoma yoki qo'shimcha xom-ashyo, material uchun talabnoma-dalolatnoma (M10) tuziladi. Bu hujjat ikki nusxada tuzilib bittasi omborxonada qolsa ikkinchi nusxasi iste'molchiga, sex yoki bo'limga beriladi.

Me'yordan ortiqcha olinadigan har bir xomashyo yoki material uchun (yaroqsiz mahsulotning o'rnini qoplash, ortiqcha sarflash, ishlab chiqarish rejasining ortiqcha bajarilishi va hokazo) maxsus talabnomalar tuziladi, chunki unda sababi, kodi va javobgar shaxslar ko'rsatiladi. Ushbu xom-ashyo yoki materiallarni berish faqatgina maxsus mas'ul xodimlarning (direktor, muxandis, texnolog) topshirigi (imzosi)ga asosan amalga oshiriladi.

Xom-ashyolar, material va tovarlar chetga, mustaqil balansga ajratilgan bo'limlarga xullas, sub'ektning manzilidan chetga chiqarilayotganda M-11 yuk xati to'lg'aziladi. Ushbu yuk xati sotish bo'limi tomonidan uch nusxada to'lg'aziladi. Uni to'lg'azish uchun tuzilgan shartnomalar, buyruq yoki topshiriqlar

asos bo'ladi. Agarda ushbu TMZ shartnomaga muvofiq transportda iste'molchilarga jo'natilsa tovar-transport yuk xati to'lg'aziladi.

Sub'ektlarda material va xomashyolarni hisobga olish quyidagi dastlabki va yig'ma hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

M-1. Keltirilgan yuklarni hisobga olish jurnali-bu jurnal sub'ektning buxgalteriyasi yoki moddiy ta'minot bo'limida yuritilib, unga xom-ashyo va materiallarning kuzatish hujjatlari — schyot-faktura, yukxatlar qayd qilib beriladi va ayrim ustunda puli to'langanligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

M-2. Ishonchnoma — ayrim shaxslarga material olish uchun vakillik huquqini beradi va sub'ekt tomonidan bir nusxada yozilib shu shaxsga imzo bilan beriladi va muddati 10-15 kunga belgilanadi.

M-2a. Ishonchnoma — agarda sub'ekt u yoki bu tashkilotdan doimiy ravishda xom-ashyo yoki material olib tursa qo'llaniladi va ushbu berilgan M2b ishonchnomalarni hisobga olish jurnalida qayd qilib boriladi (kimga, qachon va nima uchun berildi).

M-3 va M-4. Kirim orderlari-omborxonaga tovar-moddiy zahiralarni qabul qilish uchun omborxona mudiri tomonidan to'lg'aziladi.

M-7. Materiallarni qabul qilish dalolatnomasi. Agarda materiallar hujjatsiz kelsa, yoki hujjatda ko'rsatilayotgan ma'lumotlar bilan haqiqiy mavjudligi o'rtasida farq, aniqlansa qo'llaniladi. Dalolatnoma komissiya tomonidan ikki nusxada tuzilib birinchi nusxasi buxgalteriyaga materiallarni hisobga olish uchun beriladi, ikkinchi nusxasi esa mol yetkazib beruvchiga da'vo xatini tayyorlash uchun moddiy ta'minot bo'limiga yoki buxgalteriyaga beriladi.

M-8. Oylik chegaralangan olish kartasi — bitta material uchun.

M-8a. Kvadratlik chegaralangan olish kartasi — bir xil materialni uchun.

M-9. Chegaralangan olish kartasi — materiallarning 2-5 turi uchun.

M-9a. Chegaralangan olish kartasi — bir xil mahsulot uchun sarflanadigan materiallar uchun.

Yuqorida qayd qilingan sub'ektlarda ishlab chiqarish texnologiyasi haritasi yoki loyiha smetasiga asosan chegaralangan olish kartasi tuzilib sex yoki

qurilishning rahbari tomonidan tasdiqlanadi va 1-nusxasi omborxonaga, 2 nusxasi ishlab chiqarish ob'ektiga berilib olingan xom-ashyo va materiallar qayd qilib boriladi. Xom-ashyo va materiallar olib bo'lingandan keyin yopilib hisobotlar omborxona mudirining hisoboti va ishlab chiqarish hisobotlari bilan buxgalteriyaga topshiriladi.

M-10. Bir qatorli talabnoma — bitta materialning olinganligi uchun.

M-10a. Ogohlantiruvchi talabnoma — tasdiqlangan me'yordan ortiqcha olingan materiallar uchun.

M-11. Ko'p qatorli talabnoma — har xil materiallarni olish uchun.

Bu talabnomalar ham tsex rahbari yoki qurilish ob'ektining rahbari tomonidan yozilib tasdiqlangandan keyin omborxonadan olinadi va hisobotlarga ilova qilinib buxgalteriyaga topshiriladi.

M-12. Bir qatorli yuk xati — bitta materialning ombordan omborga yoki sexdan sexga o'tkazilishi uchun.

M-13. Ko'p qatorli yuk xati — har xil materiallarning ombordan omborga yoki tsexdan tsexga o'tkazilish uchun.

Bu yuk-xatlar orqali materiallarning sub'ekt ichidagi harakatini (sarflanishi emas) nazorat qilish va hisobga olib borish uchun qo'llaniladi.

M-14. Bir qatorli yuk xati — bitta materialni chetga sotish yoki berish uchun.

M-15. Ko'p qatorli yuk xati — bir nechta materiallarni chetga sotish yoki berish uchun.

Bu yuk xatlari sub'ektning filiallariga materiallarni berish yoki shartnomalarga asosan boshqa shaxslarga sotish uchun qo'llanilib, ikki nusxada tuziladi.

M-17. Omborxonada materiallarni hisobga olish kartasi, omborxonadagi mavjud tovar-moddiy zahiralarining navi, miqdori, bahosi bo'yicha harakatini hisobga olib boradi.

Bu kartalarni omborxona mudiri tuzadi va yurgazib boradi va ushbu kartalar omborxonadagi materiallar to'g'risida tezkor mu'lumotlar olish uchun xizmat qiladi.

M-18. Hujjatlarni qabul qilib olish qaydnomasi — ombor mudiri tomonidan tuzilib unda buxgalteriyaga topshirilgan kirim va chiqim hujjatlari qayd qilinadi.

M-20. Omborxonada qolgan materiallarning jamg'armasi-ma'lum davrga (asosan oy, kvartal va yil oxirida) omborda mavjud bo'lgan materiallarning qoldig'i ombor kartochkalariga asosan tezkor buxgalteriya hisobi usulida aniqlanadi.

M-22. Sarflangan materiallarni hisobdan chiqarish va materiallar qoldig'i to'g'risida dalolatnoma.

M-28. Chegaralangan olish kartasi-qurilishda materiallarni ob'ekt bitguncha olish uchun.

M-28a. Chegaralangan olish kartasi-qurilishda materiallarni oy davomida olish uchun.


Ushbu hujjat maxsus komissiya inventarizatsiya o'tkazgandan keyin tuziladi. Unda ma'lumotlar joriy hisobga asosan qo'yiladi va TMZ haqiqiy mavjudligi esa o'tkazilgan inventarizatsiyaning yakuni bo'yicha aniqlanadi.

M-34. Materiallarning haqiqiy qoldig'i bilan zahira me'yori o'rtasida farq to'g'risidagi ogohlantiruvchi bildirishnoma. Bu bildirishnoma ombor mudiri tomonidan M-17 ma'lumotiga asosan to'lg'azilib unda materiallarning harakati, keraksiz yoki ortiqcha materiallar bo'yicha ma'lumotlar olinib kelgusi oyda moddiy-texnika ta'minoti (marketing) bo'limi xodimlarining faoliyatini tartibga solishga yordam beradi.

II BOB. QO'SHMA KORXONA SHAKLIDAGI "UZSALAMAN" AKSIONERLIK JAMIYATI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI TARKIBI VA ULARNING XARAKATI TAHLILI

2.1. Qo'shma korxona shaklidagi "Uzsalaman" aksionerlik jamiyatining tovar-moddiy zaxiralari tarkibi va ularning xarakati tahlili

Korxonaning moliyaviy hisoboti shakllarida, jumladan Buxgaleriya balansi 1-shaklida tovar-moddiy zaxiralarning sintetik hisob ma'lumotlari o'z aksini topgan. Shundan tovar-moddiy zaxiralar balans aktivining joriy aktivlar bo'limida hisobga olinib ularning tarkibini asosiy 4 ta guruhga bo'lamiz: ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va tovarlar.



2.1.1-rasm. "Uzsalaman" QK AJning tovar-moddiy zaxiralari qiymati⁸

Qo'shma korxona shaklidagi "Uzsalaman" aksionerlik jamiyati tovar-moddiy zaxiralari qiymati 2015 yilga nisbatan 2017 yilda 224229.14 ming so'mga yoki 18 %ga kamaygan, 2016 yilga nisbatan esa 284470.96 ming so'mga yoki 38%ga oshgan. Albatta bu ko'rsatkich o'tgan yillarga nisbatan aylanma mablag'larning

⁸ Manba: "Uzsalaman" QK AJ ma'lumotlari asosida tayyorlandi

kamayishi hamda ishlab chiqarish xajmini kamayotganligidan dalolat beradi.

2.1.1-jadval

“Uzsalaman” QK AJning tovar-moddiy zaxiralari tarkibi (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2017 yil	
				2015 yilga nisbatan (koeffitsentda)	2016 yilga nisbatan (koeffitsentda)
Ishlab chiqarish zahiralar	619252.81	592860.09	667380.52	1.07	1.12
Tugallanmagan ishlab chiqarish	531081.13	75474.28	234108.49	0.44	3.10
Tayyor mahsulot	17987.76	24091.34	10329.56	0.57	0.42
Tovarlar	77499.93	44695.82	109773.92	1.41	2.45
Jami	1245821.63	737121.53	1021592.49	0.82	1.38

Manba: “Uzsalaman“ QK AJ ma'lumotlari

“Uzsalaman” QK AJning tovar-moddiy zaxiralari tarkibini chuqurroq o'rganish maqsadida xar bir element xaqida to'xtalib o'tsak. Ishlab chiqarish zahiralar ya'ni ombordagi ishlab chiqarish jarayoniga kiritish maqsadida olib kelingan kauchuk, teri mahsulotlari va boshqa xom-ashyolar hisoblanadi. Ishlab chiqarish zahiralar oxirgi uch yillikda ya'ni 2015 yilda 619252.81 ming so'mni, 2016 yilda 592860.09 ming so'mni va 2017 yilda 667380.52 ming so'mni tashkil etdi. Ishlab chiqarish zahiralar 2017 yilda 2015 yilga nisbatan 1.07, 2016 yilga nisbatan 1.12 koeffitsentga oshgan. Demak, 2017 yilda ombordagi zaxira miqdori ortgan.

Tugallanmagan ishlab chiqarish ya'ni yarim tayyor mahsulotlar 2015 yilda 531081.13 ming so'mni, 2016 yilda 75474.28 ming so'mni, 2017 yilda esa 234108.49 ming so'mni tashkil etgan. 2017 yilda 2015 yilga nisbatan 0.44 koeffitsentga kamaygan, 2016 yilga nisbatan esa 3.10 koeffitsentga ko'paygan. Ishlab chiqarish jarayoni o'tgan yillarga nisbatan sustlashgan.

Har qanday korxona faoliyatining asosini ishlab chiqarish jarayoni tashkil etadi. Shu sababdan korxona muvaffaqiyati ana shu jarayonni qanday tashkil etilishiga bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish uning samaradorligini oshiradi, moddiy xarajatlarni kamaytiradi, mehnat sarfini

qisqartirib, tannarxni pasaytiradi. Shu o'rinda ishlab chiqarish jarayoni haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarish jarayoni texnologik jarayonlar va yordamchi jarayonlardan tashkil topadi.

Texnologik jarayon buyumlar holatini o'zgartirishga qaratilgan ishlab chiqarish jarayonining bir qismidir. Texnologik jarayon texnologik operatsiyalar yig'indisidan iborat.

Texnologik operatsiya ish o'rnining ishlov berilayotgan mahsulotning va ishchining o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi. Ana shu elementlardan birontasining o'zgarishi bir operatsiya tugab ikkinchisi boshlanganidan dalolat beradi.

Ish joylarini tashkil etish va ularga xizmat ko'rsatish mehnatni tashkil etishning eng muhim yo'llaridan biridir. Mehnat qanday shaklda bo'lmasin, doim xodimning ish paytida qiladigan harakatlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Demak, mehnat samaradorligi ish joyini tashkil etish va unga xizmat ko'rsatish xozirgi zamon talablari darajasiga to'la javob berishiga ham bog'liq. Korxonada har bir jarayon konveyr usulda amalga oshiriladi. Korxonada ish vaqti 8 soat bo'lib 1 smena 3 ta sex mavjud ular:

1-sex bichuv sexi

2-sex tayyorlov sexi yani tikuv sexi

3-sex quyuv sexi

1-sex bichuv sexida 19 ta ishchi bo'lib uning asosiy vazifasi poyabzalning har bir qismini bichib berishdan iborat.



2.1.2-rasm. Press kesish mashinasi



2.1.3-rasm. Qirqimlarni kesish mashinasi va qoliplari

2-sex tayyorlov sexi yani tikuv sexida bir nechta jarayonlar amalga oshiriladi. Bichilgan materiallar yupqalashtiriladi, taglik kleylanadi, so`ng yupqalashtirilgan materiallar otmetka qilinadi, otmetkadan so`ng sayuzka birlashtirilib yupqalashgan nadbloshnik buklab beriladi.



2.1.4-rasm. 2-sex tayyorlov sexi ya'ni tikuv sexidagi ish jarayoni

Ichki podklad sayuzka bilan birlashtirilib tikiladi. Zagibka qismlari yig`ilib ichki va tashqi qismlari tikiladi. Uch tomoniga podnosok qo`yilib soyuzkaga astar qo`yiladi. Iplari chiqib ketmasligi uchun zakrepka tikiladi so`ng plochkalar uriladi modeliga qarab tufliga 01 plochka sopokka 04 plochka. Tovon tomoni ezilmasligi uchun zadniy qo`yiladi.



2.1.5-rasm. Tovon qismiga shakl berish mashinasi

Zadniy terapas material hisoblanadi. Uchki tomoni cho`zilib ketmasligi uchun tikiladi. Uch qismi eritilib bukiladi va eng so`nggi jarayon - taglik tikiladi.



2.1.6-rasm. Burun qismiga shakl berish mashinasi

3-sex Quyuv sexida jami 22 ishchi bo`lib ular ham turli jrayonlarni olib borishadi. Zagatovkalar razmerlarga kirgiziladi. Dazmollanadi. Shiripovkalanadi. Podoj qo`yiladi. Xolodilnikda sovutiladi. Sovitilgandan so`ng ortiqcha qismlari olib tashlanadi. Har bir poyabzal o`lchamiga qarab patak qo`yiladi.



2.1.7-rasm. 3-sex quyuv sexi

2.1.2-jadval

Korxonadagi ishchi jihoz va mashinalar ro'yhati

№	Jihoz nomi
1	Bichuv asbobi
2	Tikuv mashinasi PFAFF
3	Tikuv mashinasi "Daler"
4	Pastki choklar uchun tikuv mashinasi
5	Press-forma PVG-8
6	Desma "Karusel"

So'ng mahsulot tayyor holga keltiriladi. Korxona asosan xarbiy soha vakillariga mos mahsulotlar ishlab chiqaradi.

2.1.3-jadval

**"Uzsalaman" QK AJ tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
ko'rsatkichlari (2016 yil)**

№	Nomi	Dekabr			Yanvar –dekabr 2016-yil		
		Rejada	Xaqiqat-da	Bajari-lishi %	Rejada	Xaqiqat-da	O'sish surati 2015 yilga nisbatan %
1	Amaldagi narxlarda (ming so'm)	1 300 000	1 313 843	101,1	7840319	785412	158,5
2	Taqqoslama narxlarda (ming so'm)	1 300 000	1 380 323	106,2	8212333	829266	114,6
3	Xalq iste'moli narxlarida (ming so'm)	1 300 000	1 380 323	106,2	8 23953	831926	106,0

2.1.3-jadval davomi

	Poyabzal:	22,0	22,1		151,0	151,1	109,7
1	Erkaklar (ming juft)	21,5	22,1		147,0	147,5	
2	Ayollar (ming juft)	0,5	0,031		4,000	3,60	

Manba: “Uzsalaman” QK AJ ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, 2016-yilda 7 840 319,0 ming so’mlik maxsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo’lsa, ushbu ko’rsatkich yil oxiriga 7 854 162,0 ming so’mga ya’ni 13 843 ming so’m o’sish ko’rsatkichi bilan bajarilgan. Ushbu yilda 151,0 ming juft poyabzal ya’ni, 147,0 ming juft erkaklar oyoq kiyimi va 4,0 ming juft ayollar poyabzali ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo’lib, xaqiqatda esa ushbu ko’rsatkich 151,1 ming juftni tashkil etib, 147,5 ming juft erkaklar va 3,6 ming juft ayollar poyabzali ishlab chiqarilgan.

Korxonada maxsulot ishlab chiqarish xajmi o’tgan 2015-yilga mo’ljallangan rejaga nisbatan 101,1 foizga ortganini taxlil qilishimiz mumkin. Ushbu korxonada maxsulot ishlab chiqarishga qilinayotgan rejada erkaklar poyabzalini ishlab chiqarish rejasi ortig’i bilan bajarilayotganligi va ayollar poyabzallarini ishlab chiqarish rejasini to’liq bajarilmay qolayotganligini ko’rishimiz mumkin.

2.1.4-jadval

“Uzsalaman” QK AJ tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi ko’rsatkichlari

Natura (o’lchov birligi ming juft)							
2017 yil yanvar-dekabr				01.01.2017 yilga nisbatan o’sishi (%)	2016 yil yanvar- dekabr amalda (ming juft)	2017 yil dekabr oyida (ming juft)	2016 yil dekabr oyida (ming juft)
Reja (ming juft)	Hisobot (ming juft)	Farqi (+;-) (ming juft)	Bajari- lishi (%)				
180,0	180,3	0,3	100,2	119,3	151,1	35,7	22,1

2.1.4-jadval davomi

Maxsulot amaldagi narxlarda (ming so'm)							
2017 yil yanvar-dekabr				01.01.2017 yilga nisbatan o'sishi (%)	2016 yil yanvar- dekabr amalda (ming so'm)	2017 yil dekabr oyida (ming so'm)	2016 yil dekabr oyida (ming so'm)
Reja (ming so'm)	Hisobot (ming so'm)	Farqi (+;-) (ming so'm)	Bajari lishi (%)				
6 684 383,0	6 700 360,8	15 977,8	100,2	85,3	7 854 162	1 243 546	1 313 843
Xalq iste'mollari mollari solishtirma narxlarda (ming so'm)							
2017 yil yanvar-dekabr				01.01.2017 yilga nisbatan o'sishi (%)	2016 yil yanvar- dekabr amalda (ming so'm)	2017 yil dekabr oyida (ming so'm)	2016 yil dekabr oyida (ming so'm)
Reja (ming so'm)	Hisobot (ming so'm)	Farqi (+;-) (ming so'm)	Bajari lishi (%)				
7 548 963,0	7 877 586,2	328 623,2	104,4	94,7	8 319 276	1 521 139	1 380 323

Manba: "Uzsalaman" QK AJ ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2017-yil yakunlari bo'yicha "Uzsalaman" QK AJda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi natura shaklida 180,0 ming juft rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda esa, 180,3 juftni tashkil etdi. Rejaga nisbatan 100,2 foizga bajarildi. Erkaklar poyabzali 175,0 ming juft rejalashtirilgan bo'lib, amalda esa, 178,1 ming juft mahsulot ishlab chiqarildi. Korxona tomonidan ishlab chiqariladigan ayollar poyabzaliga bozorda talab pastligi hisobiga kamroq, ya'ni rejadagi 5,0 ming juft o'rniga amalda 1,9 ming juft mahsulot ishlab chiqarishga majbur bo'lingan. Bu kamayish tovar mahsulotining taqqoslama va joriy narxlardagi qiymatiga salbiy ta'sirini o'tkazmagan.

Korxona tomonidan 2017-yilda 6684383,0 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 15977,8 ming so'm o'sish sur'ati bilan rejaning bajarilishi 100,2% ga bajarilgan bo'lib, 6 700 360,8 ming so'mni tashkil etgan. Ushbu xisobot yilida mahsulot ishlab chiqarish 180,0 ming juft rejalashtirilgan bo'lsa, ushbu reja xaqiqatda 180,3 ming juftga bajarilgan ya'ni, 0.3

ming juft o'sish sur'atiga erishilgan. Ushbu davrda maxsulot ishlab chiqarish xajmi o'tgan yilga nisbatan 19,2 foizga o'sishga erishilgan.



2.1.8-rasm. "Uzsalaman" QK AJning tayyor mahsulotlari

Korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmi asosan korxonaning tuzgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

2.1.5-jadval

**“Uzsalaman” QK AJ tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
2016-2017-yillarda oylar taqsimotida**

№	Oylar	2016-yilda (Ming juft)	2017-yilda (Ming juft)	2017 yildagi farqi(ming juft)	2017 yilda farqi foizda(+;-)
1	Yanvar	6,0	6,8	0,8	1,13
2	Fevral	6,5	7,1	0,6	1,09
3	Mart	8,2	9,4	1,2	1,14
4	Aprel	6,5	7,0	1,5	1,07
5	May	3,0	3,3	0,3	1,10
6	Iyun	5,8	7,2	1,4	1,24
7	Iyul	5,6	5,8	0,2	1,03
8	Avgust	6,1	6,7	0,6	1,09
9	Sentabr	10,2	12,1	1,9	1,18
10	Oktabr	32,1	38,7	6,6	1,20
11	Noyabr	35,2	40,5	5,3	1,15
12	Dekabr	25,9	35,7	9,8	1,37
	umumiy	151,1	180,3	29,2	13,79

Manba: “Uzsalaman“ QK AJ ma'lumotlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, ushbu korxonada maxsulot ishlab chiqarish xajmi yil davomida turlicha xajmda bo'lib, eng kam maxsulot ishlab chiqariladigan yil mavsumi yilning boshi ya'ni, I va II choraklar bo'ladi. Korxona ishlab chiqaradigan poyabzal maxsulotlari o'zining issiq va sifatli etiklarga bo'lgan talabi bilan kuz qish mavsumida samarali faoliyat olib boradi.

2.1.6-jadval

**Bir juft maxsulot ishlab chiqarish uchun jami sarf-xarajatlar
kalkulyatsiyasi**

№	Xarajatlar	O'lchov birligi	1 juftlik uchun xarajatlar
1	Asosiy materiallar	So'm	38 200,10
2	Yordamchi materiallar	So'm	1 146,00
3	Issiqlik kuchi	So'm	60,00
4	Suv	So'm	66,00
5	Elektr	So'm	1 078,00
6	Asosiy ish haqi	So'm	4 643,83
7	Ijtimoiy sug'urta bo'yicha tushumlar 15%	So'm	696,57
8	Amortizatsiya	So'm	744,82
9	Ishlab chiqarishning boshqa xarajatlari.	So'm	3 635,00
10	Ishlab chiqarish qiymati	So'm	50 270,33
11	Davr xarajatlari	So'm	2 372,53
12	Moliyaviy faoliyat xarajatlari	So'm	2 500,00
13	Jami xarajatlar	So'm	55 142,86
14	Foyda	So'm	2 000,00
15	Ulgurji narx	So'm	57 142,86
16	Soliq	So'm	2 857,14
	Sotish narxi	So'm	60 000,00

Manba: "Uzsalaman" QK AJ ma'lumotlari

Yuqoridagi jadvalda bir birlik maxsulot uchun sarflanadigan barcha xarajatlar keltirilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor qaratish lozim bo'lgani bu korxonani bir birlik maxsuotga qoyadigan foydasi qiymati ya'ni 2000 so'mdir.

2.2. "Uzsalaman" QK AJ aylanma mablag'lari tarkibidagi tovar-moddiy zaxiralarning harakati tahlili

Korxona aylanma mablag'lariga omborda va ishlab chiqarishda ishlab chiqarish zaxiralarini yaratish, resurs yetkazib beruvchilar bilan hisob – kitob qilish, ish haqi to'lash, byudjet bilan aloqa qilish va boshqalar uchun kerakli pul mablag'lari kiradi. Aylanma mablag'lar tarkibi va strukturasi bir – biridan farq qiladi.

Aylanma mablag'larning tarkibi deganda, ularni tashkil etuvchi elementlar yig'indisi tushuniladi. Aylanma mablag'larning aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlariga bo'linishi ulardan mahsulot ishlab chiqarish va sotish doirasida foydalanish xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ishlab chiqarishda band bo'lgan aylanma mablag'lar miqdori asosan mahsulot tayyorlashdagi ishlab chiqarish siklining davomiyligi, texnika darajasi, mehnatni tashkil etish va texnologiyaning holati bilan belgilanadi. Muomala fondlari summasi esa birinchi navbatda mahsulotni sotish shart – sharoitlari va ta'minot hamda sotishni tashkil etish tizimlari darajasiga bog'liq.

Mahsulot aylanishi bilan bog'liq jarayonlarga xizmat ko'rsatuvchi aylanma mablag'lar muomala fondlarini tashkil etadi. Muomala fondlari tarkibiga korxona omboridagi sotishga tayyor mahsulot, iste'molchilarga jo'natilgan lekin to'lanmagan mahsulot, korxonaning pul mablag'lari, hisob – kitoblardagi mablag'lar kiradi.

2.2.1 – jadval

“Uzsalaman” QK AJning iqtisodiy ko'rsatkichlari

Nomlanishi	O'lchov birligi	2016 yil	2017 yil	O'zgarishi, +/-
1	2	3	4	5
1. Aylanma mablag'lar (Ayl.m)	ming so'm	3777291.92	2397684.95	-1379607
2. Pul mablag'lari (Pm)	ming so'm	612806.65	246722.74	-366083.91
3. Zaxiralar (Zx)	ming so'm	737121.53	1021592.49	284470.96
4. Debitorlar (Deb)	ming so'm	855552.11	1057103.47	201551.36
5. Balans (B)	ming so'm	4560115.88	3363772.66	-1196343.2
6. Maxsulot sotishdan tushgan tushum (Q)	ming so'm	8198693.79	7674457	-524236.79
7. Asosiy vositalar (Av)	ming so'm	189070.78	449184.07	260113.29
8. Xodimlar soni (X)	kishi	186	170	-16
9. Sof foyda (F)	ming so'm	1114826.92	103496	-1011330.9
10. Daromadlar (D)	ming so'm	8198693.79	7674457	-524236.79

Manba: “Uzsalaman” QK AJ ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'radigan bo'lsak aylanma mablag'lar 2017 – yilda 1379607 ming so'mga kamaygan. Aylanma mablag'larning kamayishiga ta'sir

etgan omillardan biri pul mablag'lari kamayishi hisoblanadi. Shuningdek, maxsulot sotishdan tushgan tushum 2016 yilga nisbatan 2017 yilda 524236.79 ming so'mga kamaygan, bu ko'rsatkich o'z-o'zidan 2016 yilga nisbatan korxonaning sof foydasini 1011330.9 ming so'mga, daromadini 524236.79 ming so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan.

2.2.2 – jadval

“Uzsalaman” QK AJning aylanma mablag'lari holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	O'zgarishi, +/-
Aylanma mablag'ning umumiy mablag'laridagi hissasi	0.82	0.71	-0.11
Aylanma mablag'lar tarkibida pul mablag'lari hissasi	0.28	0.14	-0.14
Aylanma mablag'lar tarkibida zaxiralar va xarajatlar hissasi	0.31	0.42	0.11
Aylanma mablag'lar tarkibida debitorlar hissasi	0.41	0.44	0.03
Muddati o'tib ketgan debitorlarning umumiy debitorlardagi hissasi	0	0	0

Manba: “Uzsalaman” QK AJ ma'lumotlari

Muddati o'tgan debitorlar korxonada yo'qligi va debitorlardan o'z vaqtida qarzlarini to'lashini ko'rish mumkin.

Korxonada asosiy fondlar bilan birgalikda aylanma mablag'larning bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Aylanma mablag'lar pul mablag'larining yig'indisi bo'lib, ular ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlarini mablag' bilan ta'minlashga xizmat qiladi va ularning uzluksiz aylanishini taminlaydi. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarishni va ishlab chiqarilgan maxsulotlarning realizatsiyasini uzluksizligini ta'minlaydi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda, ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida to'liqligicha sarflanadi va ularning qiymati ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga ketadi.

Aylanma aktivlar o'zining qaysi tarmoqqa qarashli ekanligiga qarab aylanishi davrida ma'lum xususiyotlarga ega bo'ladi. Aylanma aktivlarning aylanish davri xususiyati xo'jalik sub'ektining qaysi tarmoqqa ta'luqli ekanligiga

bog'liq. Mavsumiy tarmoqlar (qishloq xojaligi, qishloq xojaligi mahsulotlarining qayta ishlovchi tarmoqlar) da aylanma aktivlarining aylanishi bir tekisda kechmaydi.

Chunki bu tarmoqlarga aylanma aktivlarga qarashli ekanligiga qarab bo'lgan ehtiyoj yilning fasliga mavsumga qarab turlicha boladi. Masalan, qishloq xo'jaligida qish, bahor oylarida aylanma aktivlarga bo'lgan talab oshishi, kuzga kelib aylanma aktivlarga bo'lgan talab kamayishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi va shunga o'xshagan boshqa tarmoqlarda aylanma aktivlarga bo'lgan talab bank kreditini jalb qilishi yo'li bilan qoplanishi mumkin.

Mavsum bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar (sanoat, savdo ta'minoti va boshqalar) da aylanma aktivlarning aylanishini (mahsulot sotib olish ishlab chiqarish va sotish jarayonini amalga oshirish) tarmoqlarda ham materiallarning mol yetkazib beruvchidan kelib turishida, tovar ortiqcha yoki kam kelib tushganda, tayyor mahsulotni sotish jarayonini va boshqalarda aylanma mablag'larga bo'lgan talab bank kredit hisobidan qoplashi mumkin.

1990 yilgacha aylanma aktivlar bo'yicha normativlar o'rnatilgan. Normativ – bu minimal miqdordagi zahiralar bo'lib, ular doimo xo'jalik sub'ektlarining oborotida bo'lishi lozim. Normativ miqdorini korxonalar o'z mablag'idan qoplashi kerak.

Korxona va tashkilotlar o'zida mavjud zahira va xarajatlar summasini xomcho'p qilish asosida o'tgan davrda mavjud mablag'lar va kutilayotgan o'zgarishlarni hisob – kitob qilish yo'li bilan kreditga bo'lgan talabni aniqlaydilar.

Xo'jalik sub'ektlarining aylanma aktivlari quydagi manbalar hisobidan tashkil qilinadi:

1. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari.
2. Bank kreditlari.
3. Kreditor qarzlari.
4. Boshqa manbalar

Xo'jalik sub'ektlari ishlab chiqarish va tovarlarni sotish jarayonini normal olib borishlari uchun tovar – moddiy boyliklar va ishlab chiqarish xarajatlarining minimal miqdorida o'z aylanma mablag'lariga ega bo'lishi kerak.

Korxonaning o'z aylanma mablag'lari quydagi manbalarda tashkil topadi:

- davlat korxonalarida byudjetdan ajratmalar hisobidan;
- yuqori tashkilotlarning ajratmalari;
- ta'sischilarning pay badallari;
- aksiyador korxonalarda aksiyalar chiqarish va sotish yo'li bilan vujudga keladigan manbalar hisobidan.

Aylanma aktivlarning boshqa manbalariga moddiy rag'batlantirish fondi va boshqa fondlar qoldiqlari kirishi mumkin. Korxonalarning moliyaviy ahvoli ijobiy bo'lsa, o'z vaqtida bank kreditini to'lashi, mol etkazib beruvchilar bilan – hisob – kitob qilishi, ish haqqini to'lashi byujetga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishi mumkin.

Birinchii bosqich, aylanma mablag'lar uchun tayyorlov bosqichi hisoblanadi. U muomalada bo'ladi, bunda pul mablag'lari ishlab chiqarish zahiralariga aylanadi.

Ikkinchi bosqichda aylanma mablag'lar ishlab chiqarishni tashkil qilishda bevosita ishtirok etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning qiymatini belgilaydi, lekin uning to'liq haqqini ma'lum miqdorda to'lash uchun sarflanadi. Bu bosqich tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan tugaydi va mahsulotni realizasiya qilish yoki sotish ikkinchi bosqich hisoblanadi.

Uchinchi bosqichda aylanma mablag'lar ikkinchi bosqichdagidek mehnat mahsulotlarini ta'minlash uchun sarflanadi va mahsulot realizasiyasidan so'ng aylanma mablag' qayta tiklanadi. Aylanma mablag'larning qolgan qismi pul mablag'lari sifatida yig'iladi va reja asosida taqsimlanadi. Mahsulot realizasiyasidan kelib tushgan tushumning bir qismi foyda va aylanma mablag'larni tashkil qiladi. Bu esa ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi.

Aylanma mablag'larning shakli ular harakatining uchinchi bosqichi bo'lib shu bilan birga aylanma mablag'larning boshlang'ichi boshlanadi.

2.2.3 – jadval

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	O'zgarishi	
			+/-	%
Aylanma mablag'lar sig'imi ya'ni 1 so'm natijaga mahsulot sotishdan tushgan tushum to'g'ri keladigan aylanma mablag'lar	1,4	1,2	- 0,2	- 14,2
1 so'm asosiy vositalargalarga to'g'ri keladigan aylanma mablag'lar	34,7	36,9	2,2	6,3
Bir xodimga xodimlar soni to'g'ri keladigan aylanma mablag'lar	39162,6	39239,6	77	0,1

Manba: "Uzsalaman" QK AJ ma'lumotlari

Sanoat korxonalari aylanma mablag'lari ko'p qismini tovar moddiy boyliklar tashkil etadi. Ularning ulushi 75 – 87%. Turli tarmoqlar bo'yicha Tovar moddiy boyliklar ko'rinishidagi aylanma mablag'lar strukturasi ham turlichadir. Ishlab chiqarish zaxiralarining eng salmoqli ulushi yengil sanoat korxonalarida (xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ustunlik qiladi – 70%). Kimyo sanoatida kelgusi davr xarajatlari ulushi yuqori – 9%. Mashinasozlik sanoatiga nisbatdan ishlab chiqarish zahiralari ulushi kam, o'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish ulushi esa yuqori. Bunga sabab, og'ir energetika va transport mashinasozligida avtomobil va traktor sanoatidagi nisbatdan tugallanmagan ishlab chiqarish ulushi yuqori.

Sub'ektlarda aylanma mablag'larni boshqarish aylanma mablag'larning aylanishi, samaradorlik ko'rsatkichlarini moliyaviy baholash ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. Bunday ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilar kiritiladi:

- xom ashyo va materiallarning aylanuvchanligi;
- kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi;
- tayyor mahsulotning aylanuvchanligi;

- debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi;
- pul mablag'larining aylanish davri.

Moliyaviy menjmentning boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun zaruriy bo'lgan bunday ko'rsatkichlari tizimini hisoblash uchun axborotlar manbai sifatida sub'ektning balans ma'lumotlari va moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi. Aylanma kapitallarning elementlari o'zluksiz ravishda ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga o'tadi. Aylanma kapitallarning bir qismi doimiy ravishda ishlab chiqarishda bo'ladi(ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot), boshqa kismolari esa- muomala sohasida bo'ladi(yuklab junatilgan tovarlar, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar). Shuning uchun sub'ektlarning aylanma kapitallarining tarkibi va miqdori nafaqat ishlab chiqarish bilan balki muomala sohasi uchun ham mos kelishi lozim.

Ishlab chiqarish va muomala sohasi uchun aylanma mablag'lariga ehtiyoji turli xo'jalik faoliyati uchun bir xilda bo'lmaydi chunki aylanma mablag'larning moddiy mazmuni, aylanish tezligi, ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarishning texnologik va tashkiliy asoslari va boshqa omillar bilan aniqlanadi. Amaliyotda aylanma kapitallarni rejalashtirish, hisob va tahlil qilish uchun quyidagi belgilari bo'yicha guruhlanadi:

- ishlab chiqarishdagi funktsional rolga bog'liq ravishda aylanma ishlab chiqarish mablag'lari va muomala fondlari;
- aylanma kapitallarning shakllanish manbalariga bog'liq ravishda-xususiy aylanma mablag'lar va qarz aylanma mablag'lar;
- likvidlilik ko'rsatkichlariga bog'liq ravishda-absolyut likvidli aylanma mablag'lar, tezda sotish mumkin bo'ladigan aylanma mablag'lar, sekinroq sotish mumkin bo'ladigan aylanma mablag'lar;
- moddiy mazmuniga bog'liq ravishda mehnat buyumlari(xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqalar), tayyor mahsulotlar, tovarlar, pul mablag'lari va boshqalar

– hisob standartlari va balansda aks ettirilishi bo'yicha –zahiradagi aylanma mablag'lar, pul mablag'lari, va boshqalar;

– kapitallar quyilishining xatarlari darajasi bo'yicha- minimal xatarli aylanma kapitallar, yuqori darajadagi xatarli aylanma kapitallar;

– aylanma kapitallarning funktsional belgilari bo'yicha- ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlariga bo'linishi ishlab chiqarish jarayonida aylanma mablag'larning ishtirok etish vaqtini tahlil qilish uchun muhimdir.

Aylanma mablag'lar balans aktivining 2-chi bo'limida aks etib, aylanishdagi pul mablag'larida ifodalanadi. Asosiy fondlardan farqli ravishda aylanma mablag'lar bir ishlab chiqarish tsiklida to'la o'zlashtirilib, o'z qiymatlarini tayyor mahsulotning tannarxiga o'tkazadi va ham buyum-natura, ham qiymat ifodasida qayta tiklanadi, shu tariqa bevosita harakatda bo'ladi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi deganda, ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi koeffitsienti joriy aktivlarning moddiy aktivlar va debitorlik qarzlari bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar bevosita korxonaning bozordagi faolligini tavsiflaydi. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi korxona faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkich bo'lib, u asosda biznesni boshqarishda resurslar cheklanganligi va ulardan unumli foydalanish darajasi taxlil qilinadi va uning muhim yo'nalishlari belgilanadi.

Aylanma mablag'larning aylanishini tahlil qilganda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi:

$$a) \text{ aylanish koeffitsienti} = \frac{\text{mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum}}{\text{tovar - moddiy zaxiralari}} = \frac{7674457}{1021592} = 7.5$$

$$b) \text{ aylanish kuni} = \frac{\text{tovar - moddiy zaxiralari} \times \text{xisobot davr kuni (360)}}{\text{mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum}} = \frac{1021592 \times 325}{7674457} = 43.26$$

$$c) \text{ aylanish salmog'i koeffitsienti} = \frac{\text{tovar - moddiy zaxiralari}}{\text{mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum}} = \frac{1021592}{7674457} = 0.13$$

Bu koeffitsientlardan tashqari aylanma mablag'larning samaradorligini aniqlash maqsadida har bir yoki ming so'mlik zaxira va xarajatlar hisobiga olingan yalpi mahsulot, sof tushum va hisobot yilning sof foydasi kabi ma'lumotlar ham taxlil etiladi.

2.2.4-jadval

AJ shaklidagi “Uzsalaman” qo'shma korxonasining aylanma mablag'larini aylanishi tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	2016 yil	2017 yil	Farqi (+,-)
1	2	3	4=3-2
1.Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum, ming so'mda	8198693	7674457	-524237
2.Jami tovar-moddiy zaxiralari, ming so'mda	737121	1021592	284471
3.Tovar moddiy zaxiralarining (aylanma mablag'larning) aylanish koeffisienti (1\2)	11.1	7.5	-3.6
4.Tovar moddiy zaxiralarining (aylanma mablag'larning) aylanish davri, kun hisobida	29.21	43.26	14.05
5.Aylanish salmog'i koeffisienti (2\1)	0.08	0.13	0.05

Manba: “Uzsalaman” QK AJ ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan AJ shaklidagi “Uzsalaman” qo'shma korxonasining 2017 yilda mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum miqdori -524237 ming so'mga kamaygan. Tovar-moddiy zaxiralarining qiymati esa 284471 ming so'mga o'sgan. Natijada tovar moddiy zaxiralarining aylanish koeffitsienti o'tgan yilgi 11.1 koeffitsientdan 2017 yilga kelib 7.5 koeffitsientga pasaygan. Aylanish davri esa o'tgan yilga nisbatan 14.05 kunga ortgan, ya'ni sekinlashgan. Bunday natijani korxona uchun salbiy holat deb baholamoq kerak.

AJ shaklidagi “Uzsalaman” qo'shma korxonasida aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning quyidagi muhim yo'nalishlariga e'tibor qaratishi alohida ahamiyat kasb etadi, va ularning tejamkorligini oshirish imkonini berishi mumkin:

– mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmini o'stirish;

- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)larning iste'molchilarga yetib borishi va ular bo'yicha hujjatlar aylanishini tezlashtirish;
- aylanma mablag'lar bo'yicha me'yoriy zaxiralar saqlanishiga amal qilish;
- aylanma mablag'larning me'yordan ortiqchaligini maqsadli boshqarishni yo'lga qo'yish (mollarni imtiyozli shartlarda sotish, ijaraga berish va hokazolar);
- aylanma mablag'larni qayta baholashni balans tuzish sanasiga hisobga olish va to'g'ri belgilash;
- aylanma mablag'larni hisobdan chiqarishning xalqaro usullaridan foydalanish;
- korxonaning hisob siyosatini, shuningdek, aylanma mablag'larini baholash usulini belgilashda tarmoq rivoji va texnologik jarayonlarning murakkabligiga ahamiyat berish;
- tugallanmagan ishlab chiqarishni to'g'ri baholash;
- aylanma mablag'lar normativini belgilash;
- aylanma aktivlar aylanishini tezlashtirish maqsadida tovar va moddiy boyliklarni sotish bo'yicha hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
- mahsulotlarni markazlashgan holda sotib olish, sotuvchi va sotib oluvchining monopolligini cheklash;
- moddiy aylanma mablag'lardan samarali foydalanishda texnik va texnologik yangilanishni ta'minlash va hokazolar.

2.3.“Uzsalaman” QK AJning tovar-moddiy zahiralarini qoplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanganligi tahlili

Moliyaviy natijalarning bu tarkib turkumlanishini xalqaro xisob andozalariga nisbatan berilgan deyish mumkin. Bunda asosiy faoliyat moliyaviy natijalar qatoriga korxonaning maxsulot sotishdan oladigan natijasi, asosiy vositalarni sotishdan oladigan natijasi va boshqa aktivlarni sotishdan oladigan moliyaviy natijasi aks etadi. Davr xarjatlari ulardan chegiriluvchi qator sifatida olinadi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlar qatoriga korxonaning moliya bozorida faolligidan oladigan daromadlari va mulkiy munosatlardagi ishtirokidan olinadigan daromadlari, erkin almashtiriladigan valyuta resurslarini boshqarishdan oladigan daromadlari, korxonaning moliyaviy faoliyatidan kelib chiqadigan turli xarajatlar kiritiladi. Ularning korxona xisob foydasidagi salmog'i so'nggi yillarda tobora oshib bormoqda.

Favqulodda kutilmagan xolatlardan daromadlar va xarajatlar qatoriga korxonaning asosiy va moliyaviy faoliyatidan tashqari, tasodifiy xolatlar bo'yicha oladigan daromad va xarajatlari kiritiladi. Ularning tarkibiga kiritiladigan aniq ko'rsatkichlar yangi Nizomda ifoda etilmagan. Faqat ularning farqlanishiga ta'rif berilgan xolos. Bu tarif esa yuqorida bayon etilgan edi. Ya'ni, korxona uchun yaqin uch yillik oraliqda odatiy xol yoki faoliyat turi xisoblanmagan xolatlardan oladigan daromadlari yoki yo'qotishlar ushbu qatorga kiritiladi. Shuningdek, tasodifiy xolatlar xam.

Moliyaviy natijalarning shakllanish bo'yicha taxlilni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida berish mumkin.

AJ shaklidagi "Uzsalamani" qo'shma korxonasining moliyaviy natijalarning shakllanish bo'yicha tahlilni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida berish mumkin.

2.3.1-jadval

AJ shaklidagi "Uzsalamani" qo'shma korxonasining moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlarining tahlili

Ko'rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	O'zgarishi (+,-)	
	So'mda, ming so'm	So'mda, ming so'm	So'mda	Salmo-g'i
1	2	3	4	5
1. Maxsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi daromad	2032033.71	1373392	-658641.71	0.67
2. Davr xarajatlari	1319424.14	804063	-515361.14	0.61
3.Asosiy faoliyatdan olingan daromad	1566301.22	579617	-986684.22	0.37
4.Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad	0.0	0.0	0.0	0.0
5.Moliyaviy faoliyat xarajatlari	40719.81	91884	51164.19	2.25

2.3.1-jadval davomi

6.Umumxo'jalik faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi	1525581.41	487733	-1037848.41	0.31
7. Favquloddagi foyda va zararlar	0.0	0.0	0.0	0.0
8. Daromad solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar)	410754.49	384237	-26517.49	0.93
9. Daromad (foyda)dan soliq va boshqa soliqlar	0.0	0.0	0.0	0.0
10. Hisobot davridagi sof foyda yoki zarar	1114826.92	103496	-1011330.92	0.09

Manba: "Uzsalaman" QK AJ ma'lumotlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasida 2017 yilda 2016 yilga nisbatan 1011330.92 ming so'mga sof foydasi kamaygan. Sof foydaning kamayishiga mamlakatning xorijiy valyuta islohoti natijasida moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar ortgan, shuningdek, ma'muriy xarajatlar ham o'tgan yilga nisbatan ko'paygan. Shu bilan birga, korxonaning maxsulot sotishdan olgan yalpi moliyaviy natijasi ham 2016 yilga nisbatan 658641.71 ming so'mga kamayib, bu 2016 yildagi qiymatga nisbatan 0.67 ko'effitsentni tashkil etgan. Demak, korxona 2017 yilda 2016 yilga nisbatan foydaliligi 0.91 ko'effitsentga pasaygan. SHuning uchun, korxonada boshqa faoliyat daromadlarini oshirish bo'yicha operativ tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari to'langan soliqlarning keskin ortishiga qanday omillar sabab bo'lganligini ham o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

2.3.2-jadval

AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasining maxsulot sotishdan olingan foydasi va uning o'zgarishi taxlili

Ko'rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	Farqi (+,-), %	
1. Maxsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	8198693.79	7674457	-524237	0.93
2. Sotilgan maxsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	6166660.08	6301065	134404.9	1.02
3. Maxsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	2032033.71	1373392	-658642	0.68

Manba: "Uzsalaman" QK AJ ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasida maxsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum 2017

yilda 2016 yilga nisbatan 0.7 foizga kamaygan. Sotilgan maxsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi esa tahlil etilayotgan davrda 1.02 foizga oshgan bo'lib, 134404.9 ming so'mni tashkil qilgan. Natijada, maxsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foydasi 0.32 foizga kamaygan, ushbu ko'rsatkichning pasayishi 658642 ming so'mdan iborat bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, yalpi moliyaviy natijaning pasayishiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamayishi va tannarxni ortishi ta'sir etgan.

Moliyaviy faoliyat natijalarini tahlil etishda "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobotdan tashqari "Buxgalteriya balans"ni ham chuqur tahlil etishga to'g'ri keladi.

Mustaqillik bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to'liq erkinlik berdi. Ayniqsa, savdo-sotiqda erkin munosabat yuritish, xamkorlikda faoliyat ko'rsatish uchun sherik tanlay bilish, o'zi ishlab chiqargan maxsulot va uni sotishdan olgan daromadga to'liq egalik qilish moliyaviy ko'rsatkichlarining o'zgarishiga bevosita ta'sir etadi.

Yangicha ish yuritish sharoitida korxonalar mulkining tarkibini o'rganish va uni ko'paytirish yo'llarini aniqlash xo'jalik faoliyatining taxlilida muxim o'rin tutadi. Ayniqsa balansga qarab korxona mol-mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag' xolatini aniqlash, imkoniyat me'yorini o'lchashga yordam beradi. Odatda, korxona mablag'lariga asosan vositalar va oborotdan tashqari aktivlar xamda material (me'yorlashtirilgan) aylanma pul mablag'lari kiradi. Ularni miqdori xissadorlik, xamkorlik, kichik va boshqa korxonalarning katta-kichikligiga, ixtisoslashuvi va bozor sharoiti raqobatlariga bardoshligiga bog'liqdir.

Chunki, moliyaviy tahlilning muhim xususiyatlaridan biri korxona mulki, zahiralar va xarajatlarni xar tomonlama o'rganishdir. Bunday mablag'lar tarkibiga ishlab chiqarish zahirolari, ya'ni homashyo va materiallar, sotib olingan yarim fabrikatlar va komplektlovchi buyumlar, konstruktsiya va detallar, ikkilamchi materiallar va o'rnatilgan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, parvarish va boquvdagi chorva mollari, urug' va yem-xashak, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar va

boshqalar kiradi. Ular korxonaning bir me'yorida ishlashi hamda maxsulot ishlab chiqarishi va shartnoma bo'yicha sotish rejasini ta'minlashga yetarli bo'lishi lozim. Quyidagi jadvalda korxona mulkining xajmi va tarkibi keltirilgan. Uni tuzishda balans ma'lumotlaridan foydalanib, sof, ishlatishga layoqatli boyliklar holati o'rganiladi. Keltirilgan ma'lumotlar balansning jami summasiga teng bo'ladi.

2.3.3-jadval

AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasining buxgalteriya balansini aktiv moddalarining tahlili

Mol-mulkning tarkibi	2016 yil		2017 yil		O'zgarishi (+,-)		
	Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	2016 yilga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6\2*100
1. Uzoq muddatli aktivlar	782823.98	17,2	966087.71	28,7	183263.73	11,5	23,4
2. Joriy aktivlar	3777291.92	82,8	2397684.95	71,3	-1379606.97	-11,5	-36,5
Shu jumladan:							
A) Tovar-moddiy zahiralar	737121.53	33,5	1021592.49	43,9	284471	10,4	38,6
B) Pul mablag'lari va qisqa muddatli qo'yilmalar	612806.65	27,8	246722.74	10,6	-366084	-17,2	-59,7
V) Debitorlar	855552.11	38,7	1057103.47	45,5	201551.4	6,8	23,5
Balans aktivining jami	4560115.9	100,0	3363772.66	100,0	-1196343	0,0	-26,3

Manba: "Uzsalaman" QK AJ ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasida o'rganilayotgan 2017 yilda jami aktivlar summasi 26,3 %ga kamaygan. Aktivlarning kamayishini salbiy baholagan xolda, ma'lumotlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, aktivlarning kamayishiga asosan joriy aktivlarning 36,5 %ga hamda pul mablag'lari va qisqa muddatli qo'yilmalarning 59,7 %ga kamayganligi sabab bo'lgan. Joriy aktivlarning tarkibini o'rganadigan bo'lsak, 2017 yilda 2016 yilga nisbatan tovar-moddiy zahiralar 38,6 % ga

ko'paygan, ya'ni bu 284471 ming so'mni tashkil etadi. Debitorlik qarzlari esa 2017 yilga kelib 23,5 % ga yoki 201551.4 ming so'mga ko'payganligini salbiy baholamoq kerak. Chunki, debitorlik qarzining bunday tartibda ortib borishi korxonaning aylanma mablag'larini aylanishini sekinlashtiradi, qo'lov qobiliyatini yomonlashuviga olib keladi. Korxona aktivlari tarkibida asosiy salmoqni joriy aktivlar egallaydi. Uni tarkibida esa tovar-moddiy zahiralar asosiy o'rinda bo'lib, u 10,4 % ga yaqin aktivlar summasini tashkil etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada me'yordan ortiqcha tovar-moddiy zahirasi yaratilganligini hamda uning natijasida korxona joriy aktivlarini aylanishi sekinlashishini ko'rsatmoqda. Korxona ma'muriyati mavjud aktivlardan unumli foydalanish choralarini ko'rishi lozim deb hisoblaymiz.

Balansning passiv qismida korxona mablag'larining qoplash manbalari ko'rsatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mablag'larni to'ldirish quyidagilardan iborat:

- o'zlik mablag'larning manbalari;
- majburiyatlar.

Bunda eng muxim o'rinni korxonaning o'ziga qarashli ustav qo'shilgan, rezerv, kapitallar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari egallaydi. Ustav kapital korxona ixtiyoridagi doimiy berkitilgan asosiy va aylanma mablag'larning xajmini ko'rsatadi. U turli xo'jalik muomalalari ta'sirida o'zgarib turadi. bunga foydaning taqsimlanishi xisobiga to'ldirilish, xomiylarning a'zolik badallari, asosiy vositalarning qayta baxolanishi va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. mablag'larning ko'paytirish manbalari tarkibida foyda aloxida o'rinni egallaydi. Foyda xajmining ko'payishi eng avvalo Nizom jamg'armasini to'ldirishga va boshqa extig't jamg'armalari yaratilishga olib keladi. Amortizatsiya va boshqa fondlarning tashkil bo'lishi xam bozor sharoitida mazmunan o'zgarmoqda. 1991 yildan amortizatsiya xisoblashda tezlashtirgan me'yorlar (aktiv turdagi mashinalar, qurilmalar, transport va boshqa vositalar bo'yicha) qo'llanishi va to'liq tiklash qismi bo'yicha amortizatsiya xisoblash

asosiy vositalarning balans qiymatining maxsulotlar tannarxiga o'tkazib bo'lguncha qadar bajarishlik kabi yangiliklar joriy etildi.

Kredit va boshqa mablag'larga qisqa, o'rta, uzoq muddatga mo'ljallab olingan kreditlar, o'z muddatida uzilmagan ssudalar va boshqa qarz mablag'lari kiradi. Shuningdek kreditorlar bilan xisoblashishlar va boshqa passivlar xam shu yerda inobatga olinadi. Bunda kreditorlik qarzlardan tashqari byudjetga, sug'urta va mexnat xaqi yuzasidan korxonaning qarzlari ko'rsatadi.

Bozor iqtisodi qonuniyatlari va talabidan kelib chiqqan xolda korxonada qarz kam bo'lgani ma'qul. 2.3.4-jadvalda korxona mablag'larining manbalari ko'rsatilgan.

2.3.4-jadval

AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasining buxgalteriya balansini passiv moddalarining tahlili

Mol-mulkni tashkil topish manbaining tarkibi	2016 yil		2017 yil		O'zgarishi (+,-)		
	Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	Summa-dagi, ming so'm	Sal-moq-dagi, %	Yil boshiga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6\2*100
1. O'z mablag'larining manbalari	3568066.15	78,3	2006796.19	59,7	-1561270	-18.6	-43.7
2. Majburiyatlar	992049.73	21,7	1356976.47	40,3	364926.7	18.6	36.7
Shu jumladan:							
a) uzoq muddatli majburiyatlar	36780	3,7	779424	57,4	742644	53.7	2019.1
b) joriy majburiyatlar	955269.73	96,3	577552.47	42,6	-377717	-53.7	-39.5
Balans passivining JAMI:	4560115.9	100,0	3363772.66	100,0	-1196343	0,0	-26,3

Manba: "Uzsalaman" QK AJ ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasida 2017 yilda 2016 yilga nisbatan jami passivlari summasi 1196343 ming so'mga yoki 26,3 % ga kamaygan. Korxonada mol-mulkni tashkil etuvchi manbalarning bunday tartibda kamayishini salbiy holat sifatida baholamoq lozim. Ushbu manbalar qaysi manbalar hisobiga kamayganligiga

aloqida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya'ni manbalarning kamayishi o'z mablag'lari manbalari hisobigami yoki qarz manbalari hisobiga ekanligini aniqlash lozim.

Korxona ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxonada 2017 yil oxirida o'z mablag'lari manbalari 2016 yilga nisbatan 1561270 ming so'mga yoki 18,6 % ga kamaygan. Bu holat korxona uchun salbiy deb baholamoq lozim. Chunki, o'z mablag'larining manbalarini kamayishi korxonaning moliyaviy mustaqilligiga, to'lov qobiliyatiga hamda korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada 2017 yilda majburiyatlar summasi 364926.7 ming so'mga yoki 18,6 % ga o'sgan. Bu esa majburiyatlarning umumiy passivlarda tutgan salmog'ini 36,7 % ga oshirgan. Bundan ko'rinadiki korxonaning to'lov likvidligi pasaygan. Balans passividagi moddalarga e'tibor qiladigan bo'lsak, asosiy salmoqni, yil oxiriga kelib, ya'ni 57,4 foizni uzoq muddatli majburiyatlar tashkil etmoqda. Bu korxonaning moliyaviy barqaror emasligidan dalolat beradi.

Balans ma'lumotlariga qarab korxonani aylanma mablag'lari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligi o'rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalarni moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layoqatligini aniqlashda o'zlik manbalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkich muhim ahamiyatga egadir.

2.3.5-jadval

“Uzsalaman” QK AJning tovar-moddiy zahiralarni qoplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanganligi tahlili (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	Farqi (+,-)
1.O'z mablag'larining manbalari	3568066,15	2006796,19	-1561269,96
2.Uzoq muddatli aktivlar	782823,98	966087,71	183263,73
3.Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga tegishli o'z manbalari (1-2)	2785242,17	1040708,48	-1744533,69
4.Uzoq muddatli kredit va qarzlar	36780	779424	742644
5.Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	2822022,17	1820132,48	-1001889,69
6.Qisqa muddatli kredit va qarzlar	955269,73	577552,47	-377717,26
7.Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	3777292	2397685	-1379607

2.3.5-jadval davomi

8.Tovar-moddiy zahiralarining jami	737121,53	1021592,49	284470,96
9.Tovar-moddiy zahiralarini qoplashga o'z manbalarining yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-), (3-8)	2048120,64	19115,99	-2029004,65
10.Tovar-moddiy zahiralarini qoplashga o'z va uzoq muddatli qarz manbalarining yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-), (5-8)	2084900,64	798539,99	-1286360,65
11.Tovar-moddiy zahiralarini qoplashga jami manbalarining yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-) (7-8)	3040170,47	1376092,51	-1664077,96

Manba: “Uzsalaman” QK AJ ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Yuqoridagi jadvalda zahira va xarajatlarni qoplashga o'zlik manbalarining yetarliligini aniqlash uslubi keltirilgan. Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan “Uzsalaman” QK AJda hisobot yili boshiga nisbatan yil oxirida 1561269,96 ming so'mga o'z mablag'lari manbalari kamaygan. Aksionerlik jamiyatining uzoq muddatli aktivlari esa yil boshiga nisbatan 183263,73 ming so'mga ortgan. Buning natijasida korxonada joriy yil oxiriga kelib tovar-moddiy zahiralarini qoplashga tegishli o'zlik manbalari xajmi 1744533,69 ming so'mga kamaygan. O'zlik manbalarining kamayishini salbiy holat sifatida baholamoq lozim. Korxonada 2017 yilda 2016 yilga nisbatan uzoq muddatli majburiyatlar 742644 ming so'mga ko'paygan, bu esa korxonaning kreditorlik qarzlari ko'payganligidan dalolat beradi. Qisqa muddatli majburiyatlari 2016 yilga nisbatan 377717,26 ming so'mga kamaygan, demak korxona xodimlardan yoki boshqa tashkilotlardan qarzдорliklari kamayishiga erishgan. Mazkur korxonada tovar-moddiy zahiralar xajmi birmuncha yuqori bo'lganligi uchun 2017 yil boshida ham, yil oxirida ham tovar-moddiy zahiralarini qoplashga o'z manbalari -2029004,65 ming so'mga yetarli bo'lmagan. Shu sababli ham, korxona ma'muriyati moliyaviy barqarorlikni mustaxkamlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tahlil natijalarida quyidagi muammolar aniqlandi: korxonada tovar moddiy zahiralarini qoplashga o'z manbalari yetarli bo'lmagan. Bundan ko'rinadiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi joriy yilning boshida ham, yil oxirida ham nobarqaror holatda bo'lgan.

III-BOB. ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. “Uzsalaman” QK AJning tovar-moddiy zaxiralaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari

Ijtimoiy ishlab chiqarish va uning asosiy bo'g'ini bo'lgan korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moddiy resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Moddiy resurslardan foydalanishning juda ko'p yo'llari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Moddiy resurslardan kompleks (har taraflama) foydalanish;
2. Chiqindilardan yoki ikkilamchi xomashyo va materiallardan foydalanish.

Xom-ashyo va boshqa aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash uchun dastavval fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanish kerak. Eski texnikani yangi texnika bilan almashtirish, ayniqsa, hozirgi zamonda rivojlangan xorijiy mamlakatlar texnologiyasini joriy etish zarur. Bu borada hozirgi paytda respublikada anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. AQSH, Olmoniya, Yaponiya, Frantsiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Italiya va boshqa bir qator davlatlar bilan hamkorlikda sanoat korxonalari texnik va texnologik jihatdan yaxshilanmoqda. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini komp'yuterlashtirish kuchaymoqda. Ba'zi bir mashina-mexanizmlar modernizatsiya qilinmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari takomillashmoqda. Xom-ashyo, yoqilg'i, energetika resurslari, ya'ni aylanma fondlarning yaxshi ishlatilishi tufayli katta samara olish borasida faqat texnikaviy omillargina katta o'rin tutmasdan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham yetarli rol o'ynamoqda. Aylanma fondlardan rejaviy foydalanishni tashkil qilishda ularning ayrim turlarini mahsulot birligiga sarf etishni ilmiy asosda normallashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu ishni bajarish ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, ishlab chiqarishning rentabelligini oshirish, moddiy-texnika ta'minotini tashkil etish, texnika va texnologiyani takomillashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Barcha normalar ilmiy jihatdan asoslangan va

o'zlarining xususiyatlari bo'yicha ilg'or davr talabiga javob beradigan bo'lishlar zarur.

Moddiy resurslarni sarflash normalari turlicha bo'lishi mumkin:

1. Foydalanish muddatiga normalar: a) istiqbolli; b) yillik va operativ normalar ajratiladi.

2. Qo'llanish miqyosi bo'yicha normalar ikki xil: shaxsiy normalar va rasmiylashgan normalar bo'ladi.

3. Normallashtirilayotgan mablag'ning detallashtirish darajasi: tayyor mahsulot yoki uning ayrim qismlari bo'yicha ajratilishi mumkin.

4. Materiallarni detallashtirish bo'yicha yig'ma normalar, yiriklashgan normalar bo'lishi mumkin.

5. Moddiy resurslarni to'g'ri, oqilona sarflashni normallashtirish uchun ularning tarkibini belgilash katta ahamiyatga ega.

“Uzsalaman” QK AJ moddiy resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri – bu moddiy–texnik ta'minot bo'lib, ishlab chiqarish vositalari bilan korxonani ta'minlash va korxona bo'limlari orasida taqsimlashga qaratilgan jarayondir.

“Uzsalaman” QK AJdagi ta'minot tizimi quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- material sarfining ilg'or normalari asosida ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabni aniqlash, material va yarimfabrikatlarga buyurtmalarni tuzish;

- ta'minotchi korxonalar bilan shartnomalarni tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

- moddiy resurslarni tashib keltirishining iqtisodiy jihatdan samarali yo'llarini va miqdorlarini belgilash;

- har bir moddiy resursni saqlash uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish;

- ishlab chiqarishni, ish o'rinlarini zaruriy moddiy resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlashni tashkil etish.

Korxonalarni moddiy resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlash eng avvalo moddiy-texnik ta'minotni rejalashtirishni takomillashtirishga bog'liqdir. Moddiy texnika ta'minoti rejasining sifatli bo'lishi hamda asoslanganligi ishlab chiqarish dasturini bajarilishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Chunki ishlab chiqarish va sotish rejasini moddiy ta'minot bo'yicha tuzilgan shartnomalar va bajarilgan ishlarga qarab tuziladi.

Moddiy texnika ta'minotini rejalashtirish quyidagi ishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- reja davri uchun xom ashyo, material, yonilg'i, ehtiyot qismlar yarim fabrikatlar nomenklaturasini aniqlash;
- ushbu materiallarga narx belgilash;
- mahsulot birligiga xomashyo, material, yoqilg'i, yarimfabrikatlarning ilmiy asoslangan sarf me'yorlarini ishlab chiqarish;
- talabni hisoblash asosida moddiy resurslarga buyurtmalar tuzish va ta'minot rejasini ishlab chiqarish;
- ta'minotchi korxonalar bilan aloqa o'rnatish va shartnomalar tuzish.

Shunday qilib, korxonaning moddiy resurslarga bo'lgan umumiy talabi rejalashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar miqdoridan keskin farq qiladi. Moddiy texnika ta'minoti rejasini tuzish tayyorlov ishlaridan ya'ni, rejalashtirish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan xujjatlarni tanlash va tahlil qilishdan boshlanadi.

Korxona ta'minot bo'limlarining ishlashiga bo'linmalarni zaruriy materiallar bilan ta'minlashi borasidagi ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- material resurslarni omborlarga keltirishni sifat va miqdor jihatdan nazorat qilish, saqlash uchun joylashtirishni tashkil etish;
- etishmayotgan materiallarni aniqlash va xususiy holda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- materiallarni sifat va miqdor jihatdan saqlashni tashkil etish;
- omborxonalarda dastlabki ishlab chiqarish operatsiyalarini amalga oshirish;

- material zapaslarni boshqarish- ularning o'lchamlarini muntazam nazorat qilish, ularning normativ darajasini saqlash uchun operativ choralar ko'rish;
- material texnik resurslardan tejab foydalanishni nazorat qilish.

Iqtisodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munosabatlariga o'tish boshqaruv hisobini tashkil qilish va olib borishga katta ta'sir ko'rsatadi. Hisobning halqaro tizimlariga o'tish amalga oshirilmoqda, buuning uslubiyatining yangi shakllarini ishlab chiqishni talab qiladi. Boshqaruvchidan korxona moliyaviy holatini ob'ektiv baholarini bilish, moliyaviy tahlili usullarini egallash, qimmatli qog'ozlar bilan ishlashni mukammal bilish, bozor sharoitlarida pul mablag'lari investitsiyalarini hisoblash va boshqalarni talab qiladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda hozirgi davrda boshqaruvchini "moliyaviy menejer", "hisobchi-tahlilchi" deb atash ham mumkin.

Boshqaruv vazifalariga an'anaviy ravishda ishlab chiqishni tayyorlash, rivojlantirish, moddiy texnik ta'minot, sotish (marketing), buxgalteriya hisobini olib borish va buxgalteriya faoliyatini amalga oshirish, tayyor mahsulotlarni sotish hamda kadrlar masalasini hal qilish kiradi.

Kompyuterda ishlab chiqish nazariyasiga binoan ular vazifaviy tizimlar debataladi. Boshqaruv jaraenida buxgalteriya hisobi katta rol o'ynaydi, bundabarcha axborotlarning 60% jamlanadi.

Shahsiy kompyuter bazasida avtomatlashtirilgan ish joylarini tashkil qilinishi, korxonalarda mahalliy hisoblash tarmoqlarini yaratish, axborot bazasini tashkil qilish va iqtisodiy vazifalar majmuasini shakllantirishda yangi talablarni ilgari suradi. Shunda ma'lumotlarning taqsimlangan bazalari tizimini yaratish, turli foydalanuvchilar o'rtasida axborotlarni almashtirish, kompyuterda boshlang'ich hujjatlarni avtomatik shakllantirishning imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bunday sharoitlarda turli vazifaviy tizimchalar majmualari o'rtasidagi aniq chegaralar buzila boshladi, bu ilk navbatda buxgalteriya hisobining axborot bazasida namoyon bo'ldi.

Boshqaruv masalalarining vazifalararo majmualari vujudga keldi. Buxgalteriya hisobi bo'yicha dasturiy vositalarning yangi turlari hisobning turli uchastkalari majmualari axborotlarini birlashtiradi. Misol uchun, mehnat va ish haqi hisobining namunaviy loyihalarida bir vaqtda fondlarga to'lovlar bo'yicha to'lov hujjatlari (daromad solig'ini to'lash, nafaqa jamg'armalariga ajratmalar, tibbiyot sug'urtasi, bandlik jamg'armasiga hisoblash bo'yicha to'lov topshiriqnomalari) bo'yicha to'lov hujjatlarini ko'chirib berish ko'zda tutilgan, bunday mashina dasturini bajarilishi hisob vazifalarining ikkita majmuasini mehnat va ish haqini hisobi hamda moliyaviy hisoblash operatsiyalarini birlashtiradi.

Moddiy boyliklar hisobi tayyorlash mahsulotlarining hisobi va boshqalar bo'yicha vazifalar majmuasida ham xuddi shunga o'xshash misollarni keltirish mumkin.

Vazifalararo majmuani tashkil qilish "materiallar" dasturi misolida ham ko'rib chiqish mumkin. Uning asosini korxonadagi mahalliy hisoblash tarmog'i sharoitlarida yaratilgan yagona ma'lumotlar bazasi tashkil qiladi.

Moddiy boyliklarning mavjudligi va harakatini hisobga olishni uchta bo'lim mutahassislari amalga oshirmoqdalar: omborlar, hisobxona, moddiy-texnik ta'minot bo'limi. Dasturiy majmua o'z ichiga omborchi (ombor) moduli, hisobxona moduli, moddiy-texnik ta'minot bo'limi modulini birlashtiradi.

Omborchining dasturiy moduli ombor kartotekasini olib borilishini, hisobchining ma'lumotli qismida moddiy boyliklar harakati bo'yicha hujjatlarni buxgalteriya hisobi to'ldirilishini, materiallarni harakati bo'yicha operatsiyalar nazoratini, materiallar harakati miqdori va summasini aks ettirilishi hisobi, moliyaviy hisob-kitoblarni ta'minlaydi.

Moddiy-texnik ta'minot iqtisodchisi moddiy boyliklarning harakati bo'yicha hujjatlarni shakllantirishni olib boradi. Buxgalteriya hisobi axborotli tizimlari asosida majmualarga birlashtirgan hisobning alohida uchastkalari tomonidan bajariladigan hisob vazifalarini bajaradi. Vazifalar majmuasi iqtisodiy mazmunini aniqlash, tasdiqlangan sintetik schetlarni olib borish boshlang'ich birlamchi va yig'ma yakuniy hujjatlar, hisoblash algoritmning o'zaro aloqalari hamda

hisobning aniq vazifaning uslubiy materiallari va me'yoriy hujjatlari bilan ta'riflanadi. Buxgalteriya hisobining axborotli tizimchalari an'anaviy ravishda vazifalarning quyidagi majmualarini o'zichiga oladi: "asosiy vositalar hisobi", "moddiy boyliklar hisobi", "mehnat va ish haqi hisobi", "tayyor maxsulotlar hisobi", "moliyaviy hisoblash operatsiyalarni hisobi", "ishlab chiqarish harajatlar hisobi", "yig'ma hisob" va hisoblarni tuzish.

3.2. "Uzsalaman" QK AJning moddiy resurslarini tejash yo'llari va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida har bir korxona oldida turgan asosiy masalalardan biri – moddiy resurslarni tejash hisoblanadi. Chunki ular foydaning o'sishiga bevosita bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi. Bozor munosabatlari sharoitida foyda – korxona faoliyatini taominlovchi asosiy manbadir.

Moddiy resurslarni tejash yo'llari va manbalari farqlanadi. Tejash manbalari unga nima hisobiga erishish mumkinligini birdirsa, tejash yo'llari yoki yo'nalishlari esa qanday qilib, qanday tadbirlar hisobiga iqtisodga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Har qanday korxonada moddiy resurslarni iqtisod qilish rezervlari mavjud. Rezervlar bu korxonadagi moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash borasida korxonada mavjud, lekin ham foydalanilmagan imkoniyatlardir.

Moddiy resurslarni tejash rezervlaridan foydalanish nuqtai nazaridan, ular 3 guruhga bo'linadi:

- xalq xo'jaligi bo'yicha rezervlar;
- umumsanoat va tarmoqlararo rezervlar
- ichki ishlab chiqarish rezervlari (sexlararo, zavodlar va tarmoqlar);

Xalq xo'jaligi bo'yicha rezervlarga xalq xo'jaligi va uning barcha tarmoqlari uchun zarur bo'lgan rezervlar kiritiladi: sanoat tarmoqlari strukturasi xalq xo'jaligining ilg'or proportsiyalarini o'rnatish, sunoiy va sintetik mahsulotlar ishlab chiqarishda tejamkorlikka erishish, yoqilg'i – energetika majmua

strukturasini takomillashtirish, shuningdek, bozor munosabatlari sharoitida barcha xo'jalik mexanizmini takomillashtirish.

Umumsanoat va tarmoqlararo rezervlar – bu shunday rezervlarki, sanoatning yetakchi tarmoqlari (qora metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati) bilan iqtisodiy ishlab chiqarishni ratsional munosabatlarini o'rnatish bilan bog'liqdir.

Ushbu rezervlar iqtisodiy rayonlar va sanoatning alohida tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlarini qamrab oladi. Ularning eng muhimlari xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. SHu bilan birga, ularni amaliyotga joriy etish ko'lamlari chegaralangan bo'lib, asosan o'zaro bog'liq tarmoqlarga yoki yirik sanoat va ishlab chiqarish hududiy komplekslarga tarqaladi.

Umumsanoat va tarmoqlararo rezervlarga quyidagilar kiradi: foydali qazilmalarni qayta ishlashga eng yangi samarali usul va tizimlarini joriy etish, ularni qazib olishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish, mineral xom-ashyoga to'liq va kompleks qayta ishlov berishni taaminlash, sanoatni ixtisoslashtirish, kooperatsiya va turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarni barpo qilish va rivojlantirish, xalq xo'jaligi va iste'molchi tarmoqlarda moddiy resurslarni tajash vazifalarini bajarish maqsadida ishlab chiqaruvchi tarmoqlardagi xom-ashyo va konstruktiv materiallar sifatini oshirish, samaraliroq xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish va boshqalar.

Ichki ishlab chiqarish rezervlariga texnika, texnologiya va ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bevosita bog'liq bo'lgan moddiy resurslardan yaxshi foydalanish, mahsulotni takomillashgan turlari va modellarini yaratish, sanoatning aniq tarmoqlari mahsuloti sifatini oshirish imkoniyatlari kiradi.

Fan-texnika taraqqiyoti xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi.

Chora-tadbirlar xarakteriga bog'liq holda sanoatda va ishlab chiqarishda resurslarni tejash zahiralarini amalga oshirish asosiy yo'nalishlari ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy-iqtisodiyga bo'linadi. Ishlab chiqarish-texnik yo'nalishlarga xom-ashyoni ishlab chiqarish iste'moliga sifatli tayyorlash, mashinalar tuzilishini, uskunalarni va buyumlarni mukammallashtirish, tejankor xom ashyo, yonilg'ini

qo'llash, yangi texnika va texnologiyani joriy etish bilan bog'liq chora-tadbirlar kiradi. Ular ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslarning texnologik chiqindilari va yo'qotishlarini kamaytirish va ikkilamchi moddiy resurslardan maksimal foydalanish imkonini beradi.

AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasida moddiy resurslarni tejashning quyidagi ishlab chiqarish - texnik yo'nalishlarini e'tiborga olish lozim:

1. Ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirish bo'yicha chora- tadbirlar. Bu mashina, mexanizmlar va agregatlar bir birlik mahsulotga sarflanadigan mahsulot sig'imining kamayishi bilan birgalikda ruy beradi. Ma'lumki, zamonaviy mashinasozlikda ilmiy-texnik taraqqiyotining asosiy yo'nalishi - mashina va uskunalar quvvati va unumdorligini oshirish bo'lib, uning natijasida ularning sof va nisbiy og'irligi kamayadi, tashqi ko'rinishi yaxshilanadi, sifati oshadi, ekspluatatsiya xarajatlari kamayadi, asosiysi - mehnat unumdorligi oshadi.

2. Xom - ashyolarning tejimli tur va shakllarini joriy etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar. Ularning ishlatilishi natijasida 10-20% tejilishi mumkin.

3. An'anaviy xom - ashyo materiallari o'rnini bosadigan (o'rinbosar) materiallar bilan almashtirish chora-tadbirlari. Buning asosiy maqsadi mahsulot metall sig'imi va mehnat sig'imini kamaytirish, pirovard mahsulot sifatini oshirish hisoblanadi.

4. Korxonaning tayyorlov bazasida ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish, avtomatlashtirilgan uskunalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar.

Sanoatning ishlov beradigan tarmoqlarida ya'ni materiali to'rtburchak yuza shakliga ega bo'lgan payabzal tarmoqlarida materiallar iqtisodi bichishning ratsional yo'llarini qo'llash orqali erishiladiki, ular yordamida bichishning optimal yo'llari aniqlanadi. Ular list yuzasidan iloji boricha to'laroq foydalanish imkoniyatini beradi. Bu esa ratsional materiallar tejiladi. Mahalliy xom ashyo va yonilg'i ikkilamchi xom ashyo, moddiy va yonilg'i resurslardan foydalanish, ilgari foydalanilgan xom ashyolar, asosiy va yordamchi materiallarni tiklash muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy texnik taraqqiyot sharoitida barcha tarmoqlarda mahalliy va ikkilamchi xom ashyo yonilg'i energetika resurslarining ishlatilishi yuqori iqtisodiy samara beradi. Bu muammo hozirgi sharoitlarda yanada dolzarblashadi. Shu sababli poyafzal tarmog'i, AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasi qoshida teri mahsulotlarini qayta ishlovchi, xom – ashyo, charm mahsulotini tayyorlovchi kichik tsexlarni tashkil etish, yoki shunga o'xshash kichik korxonani qurish ham bu masalani hal etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu korxonalarni tashkil etish u qadar muammo tug'dirmaydi, chunki u AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasi hududida texnopark tashkil etilgan bo'lib, ushbu texnoparkda barcha imtiyoz va sharoitlar yaratib qo'yilgan. Bu esa ushbu texnoparkda tashkil etilgan korxonalar tomonidan yaratilayotgan mahsulotlarning bahosini yanada arzonlashishiga olib keladi.

Moddiy resurslarni tejashning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlarga quyidagilar kiradi: sanoat mahsuloti material sig'imini normallashtirish va rejalashtirishning ilmiy darajasini oshirish va moddiy resurslar sarflashning texnik asoslangan norma va normativlarini joriy etish bilan bog'liq chora-tadbirlar; yangi, samarali xom-ashyo va materiallar yonilg'i-energetik resurslar ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakat yonilg'i balansini mukammallashtirishdan iborat bo'lgan taraqqiy etgan proporsiyalarni belgilash bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar majmuasi.

Shuningdek, AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasida mahsulot tayyorlashda material resurslarni iqtisod qilishning asosiy tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari : sanoat mahsulotini material sigimini ilmiy darajada rejalashtirish va normalashtirish, material resurslarni sarfini texnik asoslangan norma va normativlarni joriy qilish va ishlab chiqish, ishlab chiqarishni tezkor rivojlantirish, xom-ashyo va materiallarni samarali turlarini qo'llash, yoqilgi-energetik resurslar balansini mukammallashtirishni o'z ichiga olgan tadbirlar majmuasini ishlab chiqishi zarur deb o'ylaymiz.

Bu esa ishlab chiqarishni texnik jixatdan qurollanganligiga, ishchilar malakasi darajasiga, moddiy texnika taominotining to'g'ri tashkil etilganligiga, bevosita bog'liqdir.

Har bir korxonada moddiy resurslarni tejashning asosiy yo'nalishi - ish joylarda bir miqdordagi xom ashyo va materiallardan yakuniy mahsulot ishlab chiqarishni oshirish hisoblanadi. Jumladan, AJ shaklidagi "Uzsalaman" qo'shma korxonasi ma'muriyati ishlab chiqarishning texnik jihozlanishini takomillashtirish, xodimlar malakasini doimiy va davomli tarzda oshirib borish, moddiy-texnik ta'minotni to'g'ri tashkil etish, moddiy resurslar zaxiralari va ishlatish me'yorlari miqdoriga e'tibor qaratishi zarur. SHuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yo'qotishlarni qisqartirish ham muhim ahamiyatga ega. Uning hisobiga moddiy resurslarni tejash mumkin. Buning uchun mahsulotni saqlash va tashish qoidalariga qat'iy rioya qilish, ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlash uchun yonilg'i, xom ashyo, materiallarni maqsadga muvofiq tayyorlash, mehnat jamoasining ish va ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifati masalalariga e'tiborini kuchaytirish lozim. Ishlab chiqarish jarayonida yo'qotishlarni qisqartirish, barcha moddiy resurslar iqtisodidan 15-20% ini tashkil etadi. Bu vazifaning yechilishiga aksionerlik xo'jalik yuritish shakllari va korxonalarni xususiy lashtirish yordam beradi.

Aylanma fondlardan foydalanishni har tomonlama yaxshilash korxonalarning asosiy vazifalaridan biridir. Qanchalik kam yonilg'i, yordamchi materiallar ma'lum sondagi mahsulot uchun yaxshi foydalanilsa, shuncha ular sarfi kamayadi. Ishlab chiqarishning texnik yo'nalishi xom-ashyoni ishlab chiqarish iste'moli uchun sifatli tayyorlab berish bilan bog'liq tadbirlar, mashina, jixozlar va mahsulotlar loyihalashtirishni takomillashtirish, xom-ashyo va yoqilg'idan tejimli foydalanish, yangi texnika va ilg'or texnologiya joriy etish ham korxonada yaxshi samara beradi.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning asosiy vazifalaridan biri – resurslarni tejash tamoyiliga rioya qilgan holda ishlab chiqarishni jadallashtirishdir.

Tejamkorlik rejimini ta'minlash bo'yicha chora – tadbirlar tizimida asosiy o'rinni mehnat predmetlarini tejash egallaydi. Bu mahsulot sifati, ishonchliligi va uzoq muddat xizmat qilishiga zarar yetkazmagan holda unga sarflanadigan xom ashyo, materiallar, yonilg'i xarajatlarini kamaytirishni bildiradi.

Hozirgi sharoitda aylanma mablag'larni tejashning iqtisodiy ahamiyati quyidagicha ifodalanadi:

- xom ashyo, materiallar, yoqilg'i xarajatlarining kamayishi ishlab chiqarish uchun katta iqtisodiy foydani ta'minlaydi. Bu avvalom bor, mavjud moddiy resurslar miqdoridan ko'proq tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi;

- moddiy resurslarni tejash, ishlab chiqarishga yangi, tejamliroq materiallarni kiritish takror ishlab chiqarish jarayonida alohida tarmoqlar o'rtasida taraqqiy etgan nisbatlarni belgilashga, sanoat ishlab chiqarishning mukammal tarmoq strukturasiga erishishga imkon beradi;

- moddiy resurslarni tejashga intilish yangi texnikani joriy etish va texnologik jarayonlarni mukammallashtirishga turtki beradi;

- moddiy resurslar iste'molidagi tejamkorlik ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilashga va jonli mehnat xarajatlarining tejaliishiga ham olib keladi (materiallarni tashish; saqlashga sarflanadigan ish kuchi kamayadi);

- moddiy resurslar tejaliishi sanoat mahsuloti tannarxining kamayishiga yordam beradi. Hozirgi vaqtda moddiy xarajatlar hisobiga barcha ishlab chiqarish xarajatlarining $\frac{3}{4}$ qismi to'g'ri keladi. Keyinchalik, ishlab chiqarishning texnik darajasi o'sishi bilan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha umumiy xarajatlarda buyumlashgan mehnat ulushi oshib boradi va mehnat predmetlari hamda mehnat vositalaridan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini tejashning asosiy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi;

- mahsulot tannarxining kamayishiga ta'sir qiladigan moddiy resurslar tejamkorligi korxonaning moliyaviy holatiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Ma'lumki, aylanma mablag'lar to'liq aylanadigan, ya'ni ishlab chiqarish va muomala davrini o'taydigan vaqt aylanma mablag'larning aylanish davri deb aytiladi. Bu ko'rsatkich korxonada mablag'lar xarakatining o'rtacha tezligini ifodalaydi. Ammo u ma'lum turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish muddatiga mos kelmaydi. Shu sababli ham korxonalarda aylanma mablag'lar samaradorligini oshirish yo'llaridan biri aylanma mablag'larni oqilona boshqarish hisoblanadi.

Aylanma mablag'larni boshqarish eng kam miqdordagi aylanma mablag'lar bilan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligini ta'minlashdan iborat. Bu korxona aylanma mablag'lari doiraviy aylanishining barcha bosqichlari bo'yicha mos shaklda va minimal, ammo yetarli miqdorda taqsimlanishi lozimligini bildiradi.

Aylanma mablag'lar har doim bir vaqtning o'zida doiraviy aylanishning uchala bosqichida mavjud bo'ladi va pul mablag'lari, materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bu esa o'z navbatida aylanma mablag'lar aylanuvchanligining tezlashuviga yordam beradi. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligining tezlashuvi hozirgi sharoitda korxonalarining birlamchi vazifasi hisoblanadi. Aylanuvchanlikni tezlashtirishga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

- ishlab chiqarish zahiralarini tuzish bosqichida iqtisodiy asoslangan zahira normalarini joriy etish;
- xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar ta'minotchilarining iste'molchilarga yaqinlashuvini ta'minlash;
- moddiy – texnik ta'minotning ombor tizimini, shuningdek materiallar va uskunalar birja savdosini kengaytirish va boshqalar.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bosqichida;

- ilmiy – texnik taraqqiyotni tezlashtirish;
- standartizaniya va unifikatsiyani rivojlantirish va takomillashtirish;
- sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish shakllarini mukammallashtirish;
- xom ashyo va yoqilg'i energetika resurslaridan tejimli foydalanishni rag'batlantirish tizimini kengroq joriy etish;
- yuqori talabga ega bo'lgan mahsulot ulushini ko'paytirish va boshqalar.

Muomala bosqichida:

- mahsulot iste'molchilarini uni ishlab chiqaruvchilarga yaqinlashtirish;
- hisob – kitob tizimini mukammallashtirish;

- bevosita aloqalar bo'yicha buyurtmalarni o'z muddatida va sifatli qilib bajarish;
- tejalgan materiallardan mahsulot ishlab chiqarish natijasida sotilgan mahsulot hajmini oshirish;
- tuzilgan bitimlarga muvofiq jo'natiladigan mahsulotlarni assortimentlar va tranzit normasi bo'yicha yuklanishini ta'minlash va boshqalar.

Bugungi kunda aylanma mablag'larda, ayniqsa, korxonalarning moddiy – tovar boyliklarida band bo'lgan yirik miqdordagi pul mablag'lari ularning to'liq saqlanishiga e'tibor qaratish, ulardan maqsadlarga muvofiq va samarali foydalanish, shuningdek, ularning aylanishini tezlashtirishni talab qiladi.

Demak, aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish uchun har bir korxona ularning ishlab chiqarish va muomalada bo'lish muddatini qisqartirishga erishishi zarur. Gap shundaki, aylanma mablag'larning muomala sohasida sekin harakatlanishi korxonaning bu vositalardan ishlab chiqarishda foydalanishda erishgan yutuqlarini yo'qqa chiqarishdan tashqari, ularning umumiy aylanishini ham sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishni tezlashtirish yoki mahsulotni realizatsiya qilish muddatini qisqartirish ham aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirishning muhim yo'li hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning quyidagi muhim yo'nalishlariga AJ shaklidagi “Uzsalaman” qo'shma korxonasi rahbariyati alohida ahamiyat qaratishi va o'z boshqaruvida unga ahamiyat berishi aylanma mablag'lardan samarali foydalanish imkonini beradi:

- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) lar ishlab chiqarish va sotish hajmini o'stirish;
- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) larning iste'molchilarga yetib borishi va ular bo'yicha xujjatlar aylanishini tezlashtirish;
- aylanma mablag'lar bo'yicha me'yoriy zahiralar saqlanishiga amal qilish

- aylanma mablag'larning me'yordan ortiqchaligini maqsadli boshqarishni yo'lga qo'yish (mollarni imtiyozli shartlarda sotish, ijaraga berish va hokazolar);
- aylanma mablag'larni qayta baholashni balans tuzish sanasiga hisobga olish va to'g'ri belgilash;
- aylanma mablag'larni hisobdan chiqarishning xalqaro usullaridan foydalanish;
- korxonaning hisob siyosatini, shuningdek, aylanma mablag'larini baholash usulini belgilashda tarmoq rivoji va texnologik jarayonlarning murakkabligiga ahamiyat berish;
- tugallanmagan ishlab chiqarishni to'g'ri baholash;
- aylanma mablag'lar normativini belgilash;
- aylanma aktivlar aylanishini tezlashtirish maqsadida tovar va moddiy boyliklarni sotish bo'yicha hisob – kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
- mahsulotlarni markazlashgan holda sotib olish, sotuvchi va sotib oluvchining monopolligini cheklash;
- moddiy aylanma mablag'lardan samarali foydalanishda texnik va texnologik yangilanishni ta'minlash va hokazolar.

Demak, AJ shaklidagi “Uzsalaman” qo'shma korxonasi o'z tasarrufidagi aylanma mablag'lar samaradorligini oshirish, ya'ni aylanma mablag'lar aylanuvchanligini tezlashtirish uchun ana shu tavsiya etilgan yo'nalishlardan oqilona foydalanishlari zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tovar-moddiy zaxiralar - bu kapital doiraviy aylanishining birinchi bosqichidagi moddiy aktivlar, ya'ni hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o'zlarining natural-moddiy shaklini to'liq, saqlab turgan ishlab chiqarish zaxiralari; asosiy podaga o'tkazish yoki sotish maqsadida o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari; ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlar; sotish uchun mo'ljallangan tovarlar; tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar hamda ishlab chiqarishdagi brakdan iborat.

Ishlab chiqarish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni samarali boshqarish bo'yicha quyidagi talablarga rioya etish zarur:

- Tovar-moddiy zaxiralarini ularning mohiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda hisobga olish;
- Tovar-moddiy zaxiralarini to'g'ri turkumlash va guruhlariga ajratish;
- Tovar-moddiy zaxiralarini to'g'ri baholash;
- Tovar-moddiy zaxiralarga qilingan qo'shimcha xarajatlarni (tashib keltirish, boj va soliq to'lovlari, kurs o'rtasidagi farqlar, ustamalar, sertifikatsiyalash va boshqalar) to'g'ri hisobga olish, ularni o'z vaqtida sotib olingan zaxiralar tannarxiga (qiymatiga) yoki korxona xarajatlariga kiritish;
- Tovar-moddiy zaxiralari holati va harakatini to'g'ri, o'z vaqtida va tegishli boshlang'ich hujjatlar bilan rasmiylashtirib hisobga olish;
- Tovar-moddiy zaxiralarga moddiy javobgarlikni ta'minlash, moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobotlarning to'g'ri va o'z vaqtida tuzilishi, taqdim etilishini nazorat qilish;
- Tovar-moddiy zaxiralarining holati va harakati bo'yicha moddiy javobgar shaxslarning hisobot ma'lumotlari va hisob ma'lumotlarining to'liq uyg'unligini ta'minlash;
- Tovar-moddiy zaxiralarining butligini ta'minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda qayta ro'yxatdan o'tkazish (inventarizatsiya qilish), uning natijalarini to'g'ri aniqlash va hisobga olish;

- Mavjud tovar-moddiy zaxiralaridan unumli foydalanish, buning uchun omborlarda me'yoridan ortiq zaxiralarni saqlamaslik, ularni qo'shimcha nobudgarchiliklariga yo'l qo'ymaslik, keraksiz materiallarni sotish va uning natijalarini to'g'ri hisobga olish;

- Tovar-moddiy zaxiralarini asosli ravishda qayta baholash va uning natijalarini hisobda to'g'ri aks ettirish;

- Arzon baholi buyumlarning eskirishini to'g'ri hisoblash, to'liq eskirgan buyumlarni o'z vaqtida hisobdan chiqarish, ularni balans qiymatini hisobotda to'g'ri aks ettirish;

- Moddiy-texnika ta'minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

- Materiallarning ishlab chiqarishga to'g'ri berilishi va ularni sarflash me'yoriga rioya qilish ustidan nazorat olib borish;

- Mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan TMZlarni kalkulyasiya ob'ektlarida to'g'ri taqsimlash.

“Uzsalaman” QK AJning tovar-moddiy zaxiralarini samarali boshqarish bo'yicha quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

1. Tovar-moddiy zaxiralarni shakllantirishda import qilinadigan xom-ashyolarni maxalliyashtirish zarur.

2. “Uzsalaman” QK AJ tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish, saqlash va yetkazishni to'g'ri tashkil etish lozim.

3. Korxona tovar-moddiy zahiralar bo'yicha me'yoriy zahiralar saqlanishiga amal qilishi kerak.

4. Tovar-moddiy zaxiralarning hisobi va hisobot ishlarini to'g'ri tashkil qilish uchun joriy inventarizatsiya o'tkazishni tashkil qilish va auditor tekshiruvi asosida uni yanada mustahkamlashni tavsiya qilamiz.

5. Korxona moliyaviy ahvolini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish jarayonida moddiy boyliklar bilan bog'liq xarajatlarni mumkin qadar kamaytirish rezervlarini izlab topish, javobgarlik markazlari ish faoliyatini yaxshilash bo'yicha vazifalar ishlab chiqish zarur.

6. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida tabiiy va moddiy resurslardan unumli foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.
7. Xaridorlar bilan bo'ladigan savdo munosabatlari tizimida hisob-kitoblarning yangi shakllaridan keng foydalanish lozim.
8. Korxona rahbarlari tovar-moddiy zahiralar aylanishini tezlashtirish uchun barcha choralarni ko'rishi lozim. Bu o'z navbatida, umuman aylanma mablag'lar harakatini tezlashtiradi va boshqa xo'jalik ehtiyojlariga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan mablag'larni tejab qoladi.
9. Mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hajmini o'stirish lozim.
10. Mahsulotlarning iste'molchilarga yetib borishi va ular bo'yicha xujjatlar aylanishini tezlashtirish zarur.
11. Aylanma mablag'larni hisobdan chiqarishning xalqaro usullaridan foydalanish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2013.
2. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz- keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013.
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - T.: O'zbekiston, 2010.
4. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. № 0-23. - T.: 1998-2002.
5. Abdullayev A. Moliyaviy hisob. – T.: Fan va texnologiya, 2005.
6. Akramov A.E. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2003.
7. Bobojonov O. Moliyaviy hisob. – T.: Sharq. NMAK, 2000.
8. Vahobov A., Ibragimov A. Moliyaviy tahlil. – T.: Sharq. NMAK, 2005.
9. Ochilov I. Moliyaviy hisob. – T.: Iqtisod va moliya, 2006.
10. Pardayev M.Q. va boshqalar. Korxonalarining iqtisodiy salohiyati tahlili. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2003.
11. Pardayev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. -T.: Mehnat, 2004.
12. Pardayev M.Q., Shoalimov A.X. Boshqaruv tahlili. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005.
13. Po'latov A. va boshqalar Boshqaruv hisobi. -T.: TIMI, 2007.
14. Xasanov B. Boshqaruv hisobi. -T.: TIMI, 2005.
15. G'ulomova F. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. T.: 2012.
16. Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: TDIU. 2010.

Internet saytlari

1. www.ziynet.uz- Ta'lim resurslari portali
2. www.google.uz – Qidiruv portali
3. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Statistika bosh boshqarmasi portali
4. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasining Xukumat portali
5. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

6. www.glavbukh.ru – Halqaro buxgalterlar sayti
7. www.norma.uz – Huquqiy me'yoriy xujjatlar sayti